

**N.Xo'janazarova, S.Erkabvoyeva**

**MAKTABGACHA YOSHDA  
MA'NAVIY AXLOQIY  
TARBIYA VA IQTISODIY  
SAVODXONLIK**

Toshkent-2009

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika instituti

N.Xo'janazarova, S.Erkaboyeva

**MAKTABGACHA YOSHDA MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYA**

**VA IQTISODIY SAVODXONLIK**

(O'quv qo'llanma)

Toshkent-2009

Maktabgacha yoshada ma'naviy-axlooqiy tarbiya va iqtisodiy savodxonlik.  
T.; "Fan va Texnologiya", 2009 y, 65 bet

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika oliy o'quv iortlari o'qituvchilari, talabalari va pedagogika kollejlari o'qituvchilari, talabalari uchun mo'jallangan bo'lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va shu bilan birga iqtisodiy savodxonligini oshirish tarbiya berishga mo'ljallangan.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va iqtisodiy tarbiya berish borasida mashg'ulot ishlanmalari tavsiya etilgan.

Mas'ul muxarrir: pedagogika fanlari nomzod, dosent M.Tolipov

Taqrizchi: psixologiya fanlari nomzodi, dosent M.Umarova

## **KIRISH**

Shaxsga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi va mактабгача та’лим muassasalari orqali davom ettiriladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, tarbiya insonga ona suti, ota namunasi ajdodlar o’giti bilan singadi. Inson xayot tajribasi bilimi, odob axloqi xatti-xarakati bilan o’zining ma’naviy ruxiy olamini boyitib boradi. Iqtisodiy bilimlarga egalik bolalar tomonidan iqtisodiy ishlab chiqarish jamiyat xayotining asosiy yo’nalishlaridan biri ekanligini chuqur anglashiga imkon berish bilan birga ularda mavjud moddiy va ma’naviy ashyolar tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ularni ko’paytirish to’g’risida g’amxo’rlik qilish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo’lida amaliy xarakatlarni tashkil etish xamda oila xo’jaligini oqilonan юritish borasidagi dastlabki ko’nikmalarga ega bo’lishlariga imkon beradi. Iqtisodiyot kishilik munosabatlarining muxim ajralmas qismi bo’lib, uni samarali tashkil etish tabiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilibgina qolmay, shaxsning ma’naviy jihatdan kamolotga erishishida xam alovida axamiyatga ega. Shuning uchun xam turli ijtimoiy tuzumlar davrida ishlab chiqarishni to’g’ri tashkil etish, takomillashtirish ilm-fan, texnika xamda texnologiya soxalarida qo’lga kiritilayotgan ютуqlardan foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratib kelingan. Zardo’shtiylik g’oyalariga ko’ra iqtisod, tabiat va uning ne’matlariga nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lish, ularni asrab, avaylash xamda ko’paytirish to’g’risida qayg’urishdan iboratdir. Bu g’oyalar keyinchalik islom dinining muqaddas manbalari Qur’oni Karim va xadisu sharifda xam yanada rivojlantiriladi. Ya’ni bu manbalarda mavjud moddiy va ma’naviy ashyolarni asrashboyitish yo’lida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar savob ularni isrof qilish, nobud etish gunoh deya baholangan. Bugun O’zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar xususan bozor iqtisodiyotining 3 ta asosi bor:

1-asosi- moddiy sharoitlar yaratish orqali mulkni-mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko’p mulkchilikni vujudga keltirish, sog’lom raqobatchilik muxitini yaratish.

2-asosi- axolini ijtimoiy ximoya qilish, shart-sharoitini yaratish, ya’ni o’sib kelayotgan avlodni bozor sharoitiga o’tish jarayonida ijtimoiy ximoyalash ularni bozor iqtisodiy tizimiga ortiqcha qiyinchiliklitsiz o’tib olishini ta’minalash.

3-asosi- yoshlarni bozor munosabatlariga ma’naviy jixatdan tayyorlash, ularni eski iqtisodiy tizim ta’siridan xalos etib, yangi iqtisodiy tizim sharoitiga tayyorlash, ya’ni ular ongiga yangicha iqtisodiy tafakkurni singdirish. YAngicha iqtisodiy tafakkur o’z tarkibiga shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish muammosini xam qamrab oladi. Bugungi kun ta’lim tizimi ta’lim muassasalarida bolalarda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish orqali kelajakda ularga o’z mexnatini baxolashni mustaqil belgilash imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlari chuqurlasha borgan sari ro’y berayotgan tub o’zgarishlar yangicha yashashni taqozo etmoqda. Bozor iqtisodi yoshlarda iqtisodiy bilimlarni chuqur o’zlashtirilishini talab etadi. Binobarin, ta’lim muassasalarida yoshlarga iqtisodiy bilim asoslarini berish bilan birga, ularda jahon standarti darajasida, milliy an’analarga munosib, iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo’yilgan. Bu dolzarb muammoni hal etishni ta’lim tizimining ilk bo’g’ini maktabgacha ta’limdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun ham kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni maktabgacha yoshidan boshlab moddiy ne’matlarning qadriga etishga, ulardan tejab-tergab foydalanishga o’rgatish, har bir moddiy boylik mehnat evaziga yaratilganligi haqida tushunchaga ega bo’lib borishlariga o’rgatish zarurdir.

Bolalar ongida savob, uvol, gunoh kabi tushunchalarni shakllantirish ular xulq-atvorida o’zini nojo’ya xatti-harakatlardan tiyishga etaklaydi, sabr-qanoatli bo’lishga chorlaydi.

Hadisi sharifda sabr-qanoat tiganmas boylikdir, deb bejiz aytilmagan. SHuning uchun ham bolalarni iqtisodiyot borasida saboqlar jarayonida tejamkor, ishbilarmon, uddaburon bo’lish bilan birga, sabr-qanoatli bo’lishning shakllanishiga ham alohida e’tibor berish zarur.

Bu o'rinda o'zbek xalqining og'zaki ijod namunalari tengsiz tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

Demak, maktabgacha yoshdan boshlab bolada tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlar bilan bir qatorda, sabr-qanoatni tarbiyalash iqtisodiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning bu sohasi kelajagi buyuk davlatning ravnaqi va taraqqiyotiga zamin hozirlaydi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA ASOSLARI**

Jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida ham ta'lism-tarbiya tizimi muayyan jamiyat va tuzumning ijtimoiy siyosati, uning maqsad hamda vazifalariga hamohang holda qurilgan. Milliy mustaqillikka erishgach O'zbekiston Respublikasi ham o'zi tanlagan ijtimoiy siyosatni amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiyotning siyosatdan tashqarida bo'lishi tabiiy hol. Biroq, O'zbekiston ta'lism-tarbiyani iqtisodiyot bilan chambarchas rivojlantirishga, pirovardida, iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligini ta'minlashga va ushbu jarayonning tarbiyashunoslikka ta'siri masalasini o'rganishga katta ahamiyat bermoqda. Shu maqsadda 1996 yil 17 avgustda «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz iqtisodiy ta'lism-tarbiya konsepsiysi» qabul qilindi.

Mazkur konsepsiyanı amalga oshirish esa sakkiz bosqichdai iboratdir:

**I bosqich.** Oila. Maktabdan tashqari ta'lism. (Har bir bosqich uchun tayyorlangan ishlanmalar)

**II bosqich.** Maktabgacha ta'lism-tarbiya. (Iqtisodga yo'naltirilgan o'yin mashg'ulot)

**III bosqich.** Boshlang'ich ta'lism. (Iqtisod alifbosi)

**IV bosqich.** Asosiy maktab ta'limi. To'liqsiz o'rta ta'lism.  
(Iqtisodiy tushunchalar)

**V bosqich.** O'rta va hunar-texnika ta'limi. (Iqtisodiy bilim va kasb iqtisodiyoti asoslari).

**VI bosqich.** Oliy va o'rta maxsus ta'lism. (Tarmoq iqtisodiyoti).

**VII bosqich.** Tarmoqlar bo'yicha malaka oshirish tizimi. (Amaliy iqtisod).

**VIII bosqich.** O'z FA, tarmoq akademiyalari, ilmiy markazlar.  
(Iqtisodiy ta'lism bo'yicha ijodiy izlanishlar).

Uzluksiz iqtisodiy ta'lism-tarbiya konsepsiysi quyidagi vazifalarni ilgari suradi:

1. Iqtisodiy ta'limning uzluksizligini ta'minlovchi bir

butunlikni hosil etish uchun har bir bosqichning o'ziga xosligini o'rganish.

2. Har bir bosqichning mustaqil maqsad va vazifalari, tashkiliy, shakl, vosita, usul metodikalarini ishlab chiqish.

3. Bosqichlar orasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi shaxsnинг iqtisodiy madaniyatlilik darajasini ko'rsatuvchi ta'lism-tarbiyaviy tadbirlar majmuining xususiyati, imkoniyatlarini aniqlagan.

4. «Labirintlar tizimi» ilmiy metodik loyihani amalga oshirishdagi moddiy ta'minot.

Ushbu vazifalar bevosita uzluksiz iqtisodiy ta'lism-tarbiya konsepsiyasining ikkinchi bosqichi hisoblanmish «Maktabgacha ta'lism-tarbiyaning maqsad va vazifalari» ni aniqlashga ham daxldor hisoblanadi.

Bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallahsga tayyorlash. Bu maqsadni amalga oshirish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning fikrlaga doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beruvchi turli vaziyatlarni ishlab chiqish; bu vaziyatlarni echish variantlarini amalga oshirishga sharoit yaratish; iqtisodiy bilimlarni egallahsga zamin bo'luvchi; mantiqiy-matematik fikrlashlarini rivojlantiruvchi o'yinlar kompleksini amalga oshirish zarur.

Ikkinchi bosqichning hayotga tadbiq etish yo'naliishlari quyidagilar:

1) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarniig iqtisodiy savodxonlik darajasi mezonlarini ishlab chiqish. Shunga ko'ra, dastur bo'limlarini integrasiya qilish. «Matematika-iqtisod, mehnat», «Tarbiya-iqtisod», «Ma'naviyat-iqtisod», «Xorijiy tillar-iqtisod» kabilar;

2) Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun «O'yinlar labirinti» tizimini ishlab chiqish va amalda sinash.

3) «Tabiatdagi ta'lism» kompleks dasturini yaratish. Bu kompleks dasturda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bevosita tabiatda o'yin tarzida tabiiy boylik, ne'matlarning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatuvchi ta'limi o'yin va tabiat qo'ynidagi sog'lomlashtirish kabi tadbirlar aks etadi. Bunda xorijiy tillardan rus va ingliz tillarini o'rganish jarayonida iqtisodiy tushuncha va so'zlarni ishlatishga alohida e'tibor berish zarur.

Bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tevarak-atrofdagi moddiy ne'matlarga, buyumlarga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, har qanday moddiy ne'mat inson mehnatining mahsuli ekanligini va uni asrab-avaylashga o'rgatib borish zarur. Bolaning jamoatchilik va shaxsiy buyumlarga bo'lgan munosabati ilk yoshlik chog'idanoq oilada, oila a'zolarining shaxsiy va jamoatchilik mulkiga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Albatta, yosh avlodda tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantirmasdan turib barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki aynan shu sifatlarda bolaning inson mehnati mahsuliga, jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabati, uni asrab-avaylash, boyitishga hissa qo'shish istagi yotadi. O'sib borayotgan yosh avlodda bunday sifat va fazilatlarni shakllantirish ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik mahoratni qay darajada egallaganligiga bog'liqdir.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat tarbiyachi shaxsi shakllanishida uning ijodkor bo'lishi uchun zamin yaratmoqda.

Shunday ekan, bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy faol va ijodkor shaxsni shakllantirish va tayyorlash hayotiy zaruratdir. SHuni ham aytish joizki, bolaga iqtisodiy tarbiya berish masalasi qadim-qadimdan pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. O'tmishimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, otabobolarimiz Buyuk ipak yo'lini kashf etish orqali savdo-sotiqni, mol ayirboshlashni yo'lga qo'yganlar. Bu tufayli esa ishlab chiqarishni rivojlantirish, moddiy farovonliklarini oshirishga, fan adabiyot, madaniyat sohasidagi yangiliklardan bahramand bo'lishga erishganlar.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqargan paytlarda ham iqtisod masalasiga katta e'tibor bergan. Chunonchi, mamlakat boyligini ko'paytirish uchun iqtisodni boshqarish ishiga kishilarni tayyorlash, chet mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish masalasi Amir Temur va uning avlodlari hokimiyatni boshqargan davrlarda ularning asosiy diqqat markazlarida bo'lgan.

Buni «Amir Temur o'gitlari» kitobida keltirilgan quyidagi hikmatdan ham bilish mumkin: «Har mamlakat va diyor sayohatchilariyu musofirlarining boshini

siladimki, turli mamlakatlardap menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular o'shal mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorinipg o'z raiyatiga qanday muomala-munosabatda ekanligini aniqlasinlar».<sup>1</sup>

Amir Temur davlat xazinasini boyitish bilan birga mamlakatni obod qilish, xalqning moddiy farovonligini oshirish uchun har bir fuqaroning manfaatini himoya qilishni ham o'z zimmasidagi vazifa deb bilgan. «Harob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgai ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar qursinlar, yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'yсинlar, har bir rabotga bir necha odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarini g'aflat bosib, o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin»<sup>2</sup>

Yoki «Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdotarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun hazinadan etarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi etmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin»<sup>3</sup>, deyiladi Temur o'gitlarida. Ko'rinish turibdiki, Sohibqiron mamlakatdagi har bir fuqaroning oiladagi moddiy ahvolini yaxshilashni davlat ishi deb bilgan va davlat siyosati darajasiga ko'targan. Mamlakatning iqtisodiy kuch-qudratini belgilashda xalqning turmush darajasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunib etgan.

Amir Temur kishilardagi axloqiy sifatlar bilan birga uddaburonlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni ham yuksak baholab shunday deydi: «Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin».

O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri Abu Nasr Farobiy o'zining «Baxtsaodatga erishuv haqida» nomli asarida yoshlarni kasb-hunar, ish tajriba o'rganishga

<sup>1</sup> Amir temur O'gitlari. Toshkent, «Navro'z » nashriyoti, 1992 y

<sup>2</sup> Amir temur O'gitlari. Toshkent, «Navro'z » nashriyoti, 1992 y

<sup>3</sup> Amir temur O'gitlari. Toshkent, «Navro'z » nashriyoti, 1992 y.

va shular natijasida erishilgan mablag'larni sarflashda me'yorga qat'iy amal qilishga chaqiradi. «Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchoqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi».<sup>4</sup>

Al Farobiy insonga risoladagidek yashash uchun juda ko'p moddiy ne'matlar zarurligini va ularni yaratish jarayonida inson boshqa shaxslarga murojaat qilishi, ularning maslahati, ko'magi kerakligini, ya'ni, odamlar bir-birlari bilan o'zaro iqtisodiy aloqalar o'rnatishlari zarurligini aytib o'tadi. Olimning ushbu fikri to'g'ri va hayotiyligini davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi, jumladan, O'zbekiston ayni damda jahonning 120 dan ziyod mamlakati bilan iqtisodiy aloqalar bog'langanligi bilan ham asoslash mumkin.

O'rta asrning buyuk donishmandlaridan Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarida yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda oilaning tutgan o'rniga yuqori baho beradi. «Oila a'zolari kunlik oziq-ovqatlar uchun etarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, guruch, mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim. Ota-onada uvol qilish gunoh ekanligini farzandiga yoshligidan nasihat yo'li bilan o'rgatadi».<sup>5</sup>

Yoki «Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilishi kerakki, bola o'z mehnati natijalarini ko'ra bilsin. SHundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganligini anglaydi. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'ladi».<sup>6</sup>

Albatta, Ibn Sino ta'kidlaganidek, bolaga iqtisodiy tarbiya berishning yo'llaridan biri bolani mehnatsevarlikka o'rgatishni, ayni paytda, bolani kattalar mehnati bilan tanishtirish, ularning mehnati natijalari ahamiyatini bolalarga sodda qilib tushuntirish, mehnat qurollari, mehnat jarayonlari bilan tanishtirish, ularda mehnat qilish

<sup>4</sup> Аль Фаробий. Социально-этнические тракты. Ална Ата, 1973 г

<sup>5</sup> С.Рахимов., Х. Ахророва. Хўжалик юрнтиш хакида. Тошхепт 1939 й

<sup>6</sup> С.Рахимов., Х. Ахророва. Хўжалик юрнтиш хакида. Тошхепт 1939 й

ishtiyoyqini hosil qilish, o'z mehnati natijasidan qoniqishni yuzaga keltirish orqali amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish masalasining dolzarbligiga o'z e'tiborini qaratib Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarining «Iqtisod» bo'limida shunday deydi: «...Hozirgi zamonda maqsadga etmak, o'z millatiga xizmat qilmaq, xalqqa maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdir. Olamdagi hamma millatlarning salohiyati mol va boyliklari ila o'lchanadur. Har erda boy millatlar og'ur kelub, pallani bosub, xo'ja o'lganidek faqirlarni engil kulib, qul va asir bo'lib, osilib qoladur... Amerikaliklar bir dona don ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar, Evropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizpi kelturub o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo... turkistonlikdar dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib sut oshiramiz, non o'rniga kesak tishlaymiz... Hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tunganmas sabr, bitmas g'ayrat lozimdir...»<sup>7</sup>

Yoki «Iqtisod deb pul va mol kabi ne'mathlarini qadrini bilmakka aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz erga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamas. Sahovatlilikning ziddi baxillik o'lgani kabi iqtisodining ziddi isrofdir. Olloh taolo isrof qiluvchilarni suymas». A.Avloniyning ushbu fikri yoshlarning ma'naviy axloqiy qiyofasini, shaxsiy sifatlarini shakllantirishda ham ahamiyati katta. Zero, xalqimizda «Tejamkorlik xasislik emas» degan naql bor. Tejamkorlik esa insondagi shaxsiy fazilatlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, «Bolalar bog'chasida ta'llim-tarbiya dasturi» ning «Axloqiy tarbiya» bo'limida bolalarda shaxsiy va jamoa mulkiga nisbatan ehtiyyotkorlik, uni asrab-avaylash kabi sifatlarni shakllantirish, «Elementar matematik tasavvurlarni o'stirish» bo'limida esa ayrim matematik tushunchalarni bolalarga singdirish kiritilgan edi. Ammo bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish bo'yicha davr qo'yayotgan talabga javob bermas, edi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'llimi vazirligi Respublika ta'llim markazi tomonidan «Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'llim-tarbiya dasturi» ishlab chiqildi.

<sup>7</sup> Абдулла Авлоний. Туркий Гулистан ёхуд ахлоқ. Тошкент, 1992 й

«Bolalar bog’chasida ilk iqtisodiy ta’lim-tarbiya» dasturiga ko’ra o’rta guruh bolalarini olti xil iqtisodiy tushuncha (iqtisod, mehnat, boylik, mulkiy munosabatlar, bozor, nul) bilan tanishtirish ko’zda tutiladi.

### ***I. Iqtisod-bu hayot.***

Bolalarga iqtisodiy tushunchalar berish orqali ularning yashash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish. Inson yashashi uchun zarur bo’lgan hayotiy ehtiyojlar, kiyinish, ovqatlanish, o’yinga bo’lgan ehtiyoj, mehnat ehtiyojining mavjudligi. Ikki ehtiyoj turining bir-biri bilan bog’liqligi. Yashash uchun shart-sharoit.

### ***II. Ishlab chiqarish. Mehnat.***

Mehnat-ishlab chiqarishning inson hayotidagi asosiy faoliyati ekanligi. Shaxsiy mehnat ish kuchi, uning natijasi mehnat ekanligi. Ish kuchi insonning mehnat qilishga qaratilgani. «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo’lar chiroylik». Jismoniy va aqliy mehnat. Mehnat qurollari. Mehnatga munosabat.

### ***III. Milliy boylik.***

Avlodlar mehnati bilan yaratilgan muayyan jamiyatning, millat va elatning boyligi. Milliy boylikning yaratilishi, ishlatalishi va qayta yangidan tiklanishi. O’rta Osiyodagi qadimiy kasb-korlar, yangi kasblar eskilarini yo’qolishiga sabab bo’lgan hollarning tahlili. Me’morchilik, hunarmandchilik sohasida haqiqiy san’at namunalarini yaratgan xalq ustalari. Milliy boylikning yaratilishidagi ikki manba: 1. Mehnat mahsuli. 2. Tabiat in’omi.

### ***IV. Mulkiy munosabatlar.***

Mulkchilik nima? Mulkchilikning shakllari: A) davlat mulki; B) shaxsiy mulk. Mulkchilikni o’zlashtirishdagi uch ajralmas manba:

1. Mulkka egalik qilish.
2. Mulkdan foyda olish.
3. Mulkni sotish, merosga qoldirish, asrab-avaylash, ko’paytirish.

### ***V. Bozor.***

Bozor-sotuvchi va xaridorning muomala qiladigan joyi. Bozor ishtirokchilari: A)

sotuvchi; B) xaridor.

Sotuvchi-o'z mahsulotlarini sotadigan shaxs. Xaridor-hayotida o'z ehtiyojini qondirish uchun bozordan mahsulot sotib oluvchi shaxs.

Bozor turlari: A) Dehqon bozori; B) Kiyim-kechak sotadigan bozor;

V) Iste'mol (oziq-ovqat) sotadigan bozor. Ularning bir-biridan farqi. Bozorda amalga oshiriladigan savdo. Savdogar kim? Uning axloqiy sifatlari: A) halollik, B) to'g'riso'zlilik, V) uddaburonlik (ishbilarmomonlik), D) xalq manfaatini o'ylash.

Do'kon. Do'konning bozordan farqi. Do'konning turlari. Savdo (oldi-sotdi) ning kishilarga xizmati, ahamiyati.

## ***VI. Pul***

Pul-hamma mahsulotlar, xizmatlar ayirboshlanadigan asosiy muomala vositasi. Pulning pavdo bo'lishi. Odamning pulga bo'lgan ehtiyojini rivojlanishi. Pul bajaradigan ishlar (funksiyasi): A) muomala vositasi; B) jamg'arma vositasi. Pulning qadr-qiymati. Milliy pul birligi. Pulni asrash va tejash.

«Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lif-tarbiya» dasturiga ko'ra katta guruh bolalariga sakkiz xil iqtisodiy tushuncha (iqtisod, mehnat, boylik, mulkiy munosabat, tadbirkorlik, bozor, pul, mahsulot) bilan tanishtirish mazmuni berilgan.

### ***I. Iqtisod-bu hayot.***

Bolalarga iqtisodiy ma'lumotlar berish orqali inson hayoti haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish. Ehtiyojning inson hayotidagi ahamiyati. Moddiy ehtiyojlar tabiiy ehtiyojlar ekanligi, ularning zarurligi, uning moddiy ko'rinishi (masalan, o'qituvchi va vrach). Umumjamiyat, umuminsoniy ehtiyojlar, yaxlit birlikda yashab turish uchun zarur ehtiyojlar: A) tabiiy boyliklarni asrash; B) harbiy mudofaa. Ehtiyojlarning hayot kechirishning tabiiy sharoitiga bog'liq bo'lmasdan, balki unga xos tarixiy an'analar, milliy udumlar bilan bog'liqligi.

Inson o'zi yashash uchun moddiy ehtiyojini qondirish jarayoni. YAshash uchun shart-sharoitlar.

### ***II. Ishlab chiqarish. Mehnat.***

Inson faoliyati va jamiyat faoliyatining muhim tomoni uning ishlab chiqarish

ekanligi. Ishlab chiqarish jarayonida asosan mahsulotlar yaratilishi. Ishlab chiqarishning ikki ko'rinishi:

1. Moddiy ishlab chiqarish. (Oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy qo'rish, transport, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi).

2. Ishlab chiqarishning boshqa ko'rinishi inson uchun zarur bo'lgan xizmatlar. (Medisina, sport, madaniy dam olish). Bu ikki ko'rinishning bir-biri bilan bog'liqligi. Insonning jamiyatdagi mehnati.

## ***II. Milliy boylik.***

Milliy boylik haqida bilim tasavvurlarini kengaytirishda davom etish. Milliy boylik: A) yaratish; B) ishlatish; V) qayta ta'mirlash; G) jamg'arish.

Milliy boylikni inson faoliyati ta'sirida bo'lishi. Boylikni asrash, tarixiy boylikni e'zozlash, uni avlodlarga o'tish jarayoni.

Davlat mulkiga munosabat, jamiyat ehtiyojini qondirish uchun milliy boylikning sarflanishi (tabiiy resurslar), uni ishlatilgan insoi mehnati bilan yaratilgan narsalar o'rmini to'ldirishda insonning mehnati, ijodkorligi, milliy boylikning o'sish manbalari.

## ***IV. Mulkiy munosabatlar.***

Mulkchilik. 1. Inson bilan boylik o'rtasidagi munosabat. 2. Boylik xususida insonlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabat.

Har bir inson o'z mulki orqasidan kun kechira olish jarayoni: dehqonchilik qilish, yerni ijaraga berish...

Mulkchilikka taalluqli narsalar: yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, mashina, mehnat (aqliy, jismoniy), tarixiy-madaniy yodgorliklar.

Mulkchilikning egalari: kishilar, oilalar, jamoalar, davlat. Mulkning tejamkorlikni yuzaga keltirish sabablari. Mulk shakllari: A) shaxsiy mulk, B) davlat mulki, V) mahalla mulki, G) oila mulki. Milliy mulkning milliy boylikka aylanishi.

## ***V. Biznes va tadbirkorlik.***

Biznes-ishbilarmon kishining faoliyati. Biznesmen kim? Tadbirkorlik insonning moddiy va pul mablag'larni daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyati.

Tadbirkorlik bilan biznesmenning farqi. Tadbirkor, biznesmen bo'lish qoidalari.

Firma nima? Firmaning faolligi. Reklama. Uning zarurligi. Tadbirkorlik, ishbilarmonlikning hozirgi davr ahamiyati.

### ***VI. Bozor.***

Bozorning mohiyati va vazifalari. Bozorning tuzilishi: erkin bozor, mehnat bozori, birja. Savdo firmalari, qimmatbaho qog'ozlar bozori: (aksiya, bank) auksiop: chayqov bozori. Tijorat nima? Foyda nima? Savdo-sotiqdagi foyda.

### ***VII. Pul.***

Pulga ehtiyoj. Pulning qadr-qiymati. Narx darajasi. Mahsulotga narx qo'yish. Narx-navo nima? Mahsulot uchun talab va taklif. Xaridor didi. Xaridor daromadi. Mahsulot sifati va sifatsizligi. Mahsulot tan narxi nima? Narxlar nimaga bog'liq, uni qanday o'zgartirish kerak? Valyuta.

### ***VIII. Mahsulot.***

Insonning buyumlarga ehtiyoji. Xomashyo. Mehnat mahsulining mahsulotga (tovarga) aylanishi. Mahsulotning bozorda mahsulotga yoki pulga ayriboshlanishi. Mahsulot va uning sifati. Har bir mahsulotning inson ehtiyojini qondirish xususiyati. Mahsulot ishlab chiqarishda sarf bo'lган mehnat. Ish vaqt. Ish o'rni mehnat sifatining mahsulot sifatiga bog'liqligi va ta'siri.

«Bolalar bog'chasida ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya» dasturiga ko'ra tayyorlov guruh bolalarini 12 xil iqtisodiy tushuncha (iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, aloqa, ma'naviyat, qoida va tartibni saqlash, boshqaruv, savdo, pul, mahsulot) bilan tanishtirish mazmuni berilgan.

### ***I.Inson. Hayot. Iqtisod.***

Inson yashashi uchun zarur ehtiyoj. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, yorug'lik, issiqlik, suv, havo ularning inson hayotidagi ahamiyati. Insonning moddiy ne'matlar va yashash uchui shart-sharoitlar yaratishi. Insonning bir-birlari bilan bo'lган muloqoti hayotiy ehtiyoj sifatida. Harakat inson hayoti asoslari.

## ***II. Mehnat.***

Mehnat-inson harakatining asosi va ehtiyojini ta'minlovchi manba. Insonning jamiyatdagi mehnati. Jismoniy va aqliy mehnat. Ularning bir-biridan farqi va o'zaro uzviy bog'liqligi. Mehnat qilish uchun shart-sharoit. Mehnat va dam olish. Salomatlikni muhofaza qilish. Sog'liqni saqlashning zarurati. Bu borada davlatda mavjud bo'lgan muassasalar to'g'risida tushuncha berish. Inson hayotini xavf-xatardan saqlashning ahamiyati. Bu borada davlatda mavjud ishlar to'g'risida tushuncha berish.

## ***III. Oila. Uy xo'jaligi.***

Uy xo'jaligi haqida ma'lumot berish. Uy xo'jaligi ishi hayotiy ehtiyoj sifatida. Uy-xonodon jihozlari, xo'jalik mollari, bog', tomorqa, uy xo'jaligida asosiy ehtiyojni qondirishning manbai. Uyda taom tayyorlash inson uchun zarur narsalarning uyda tayyorlanishi. Uy sharoitida dam olish va yo'qolgan kuchlarni qayta tiklash.

Oila nima degani? Oila nima uchun kerak? Katta oila, kichik oila. Oilada farzandning burchi.

## ***IV.Jamiyat.***

Jamiyatda insonlar ehtiyoji, uchun ishlab chiqariladigan narsalar. Qo'l mehnati va mashinada ishlab chiqariladigan parsalar. Ishlab chiqarish (zavod, fabrika va x.k.) da qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan narsalar, turli ehtiyojlarni qopdirishning vositasi sifatida. Do'kon, umumiyl oshxonalar, restoranlar insonlar ehtiyojini qondiruvchi asosiy manba deyish mumkinmi?

## ***V. Munosabat. Aloqa.***

Kishilarning bir-birlari bilan qiladigan munosabatlari vositasi-pochta, telegraf, telefon, radio haqida ma'lumot berish.

Aloqa vositalari, uning tarixiy rivojlanishi. Avtomobil, temir yo'l transporti, havo yo'llari, inson harakati vositalari sifatida transport vositalari rivojlanishi tarixi (ot aravadan bopshab to kosmik kemaga qadar).

## ***VI. Ma'naviyat.***

Kishilarning ma'naviy ozuqaga bo'lgan ehtiyoji. Xabarlar, kitoblar, xaritalar, ro'znomalar, radio, televidenie, kino, teatr kishilar ongi rivojlanishi va kundalik yangiliklarni o'zgartirishning asosiy manbai sifatida. Kishilar hayotini farovonlashtirishda ilm-fan, texnika va axborotlarning ahamiyati.

Kishilarning sog'liqlari qay yo'sinda, kim tomondan himoya qilinadi? Tibbiyot, sog'liqni saqlash muassasalari salomatlikni saqlash va kasalliklar bilan kurashishning asosiy posbonlari: poliklinika, kasalxonalar, sog'liqni saqlash punktlari, sanatoriy, profilaktoriylar. Vrachlar, sanitarlar, hamshiralar qanday faoliyat bilan shug'ullanadilar? Sog'liqni saqlash borasida dorixona hamda dori-darmonlarning ahamiyati. Kimlarga va qachon «Tez yordam» xizmati ko'rsatiladi? Uy sharoitida davolanish. Doim sog' bo'lish uchun nima qilish kerak?

## ***VII. Qoida va tartibni saqlash.***

Jamiyatda tartib-qoidani saqlash va kishilarni xavf-xatardan muhofaza qilish. Qurolli qo'shinlar, milisiya, o't o'chirish, qutqaruv organlarining jivoyatchilikni oldini olish va fuqaro xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlari. Kishilarning mol-mulkleri va hayotlarining xavf ostida qolishiga nima va kim sabab bo'ladi?

Kishilarning xavfsizligini ta'minlash uchun kim bilan kurash olib boradilar? Ishlab chiqaritdati texnika xavfsizligini kim ta'minlaydi? Insonning ko'chada, uyda, ishda, maktabda xavf-xatardan holi bo'lishi uchun kimlar yoki nimalardan voqif va hushyor bo'lish kerak?

## ***VIII. Boshqaruv.***

Xo'jalikni kim boshqaradi. Boshqaruv organlari nima? Uy xo'jaligini kim boshqaradi? Firma, maktab, do'kon qanday boshqariladi? Boshqaruv to'g'risida kim qonun chiqaradi? Shahar, qishloq, mamlakatda iqtisodiy qonunlarning buzilmasligiga kim javobgar?

## ***IX. Savdo.***

Kishilar o’zlari uchun zarur bo’lgan narsalarni qaerdan va qanday sotib oladilar. Savdo nima? U kishilarga qanday xizmat qiladi? Pulning kelib chiqishi, kishilar nima uchun bir molni ikkinchisiga almashtiradilar (molni pulga, pulni buyumga)?

Bozor so’zining ma’nosi nima? Sotuvchi va xaridor qaerda uchrashadilar, savdo, oldi-sotdi qaerdan o’tadi? Bozor turlari. Do’kon bozordan murakkabligi va hajmi jihatidan farq qiladigan savdo tarmog’i sifatida.

Oziq-ovqat va kiyim-kechak do’konlari, savdo markazlarilar, yarmarkalar, kim oshdi savdosi, mavsumiy sotuvchilar. Barter nima? Savdotarning do’kon sotuvchilaridai farqi, savdodagi halollik.

## ***X. Pul.***

Pul nima? Insonniig pulga bo’lgan ehtiyoji. Pul zaruriyati. Pul-to’lov vositasi. Pul savdo-sotiq vositasi sifatida. Pulning kelib chiqishi va tarixi to’g’risida ikki og’iz so’z. Pulning turlari. Pul birliklari nima? Pul bilan qilinadigan muomalada nimalarga e’tibor berish kerak. Pul qaerdan keladi? Pul qaysi yo’l bilan kishilar qo’liga tushadi? Nima uchun biz pulni avaylaymiz va tejab ishlatamiz? Bolalarga pul kerakmi? Pulni nima uchun to’lash kerak?

Tovar sotib oliga jarayonida sotuvchiga qancha pul to’lash kerak. Narx nima, u nimaga kerak? Narxlar nimaga qarab o’zgaradi? Buyumning arzon va qimmat turishini qaiday bilsa bo’ladi? Xarid vaqtida sotuvchi bilan savdolashish kerakmi? Tovarning narxini faqat sotuvchi belgilaydimi? Qimmat narsa doim ham sifatli bo’ladimi?

## ***XI. Mahsulot.***

Buyumlar nimalardan yasaladi. Xomashyo (materiallar) to’g’risida boshlang’ich tasavvur berish. Ularning turlari. Xomashyo asosiy tabiiy material sifatida. Issiqlik, suv va havo yordamida xom-ashyoga ishlov berish. O’simliklardan olinadigan xomashyolar. Sun’iy, kimyoviy materiallar. Qurilish ashyolari. Oziq-ovqat mahsulotlari qaysi xomashyodan ishlab chiqariladi. Non, pishloq, kolbasa, konfet,

pechen'e, qazi va shirinliklarning asosiy tayyorlanishi nimalardan iborat. Birinchi, ikkinchi, uchinchi ovqatlar nimalardan tayyorlanadi. Bosh kiyimi, poyabzal va kiyim-kechaklar nimalardan tikiladi, to'qiladi, yasaladi. Matolar turi, ular nimalardai ishlab chiqariladi. Sun'iy va tabiiy tolalar haqida ma'lumot berish. Ulardan qanday kiyim-kechak va poyabzal tikiladi. Mashinalar qanday xomashyodan yasaladi. Uning qaysi bo'lagi nimadan ishlab chiqilgan. Plastmassa, taxta, temir, po'lat, mato, shisha, rezina...

Qurilish materiallari. uylar, jihozlar, predmetlar, uy anjomlari qaysi xomashyodan yaratiladi. Qurilishda g'isht, loy, sement, beton, yog'och, temir-tersakdan foydalanish. Qanday xomashyodan kitob, ro'znama, oynoma, daftarlар tayyorlapadi. Qog'oz ishlab chiqarish va qog'ozning xususiyati to'g'risida tushuncha berish. Ovozni, musiqiy tovushlarni nimaga yozish mumkin, fotosuratlar, rasmlar qanday materialda o'z aksini tonadi. Rassomlar qaysi materialda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Bir pecha ashyodan bir mahsulotni keltirib chiqarish haqida ma'lumot berish. Qaysi yo'llar bilan buni amalga oshirish mumkin. Misol uchun: bug'doy-un, go'sht-qiyma, sut-qaymoq-sariyog', jun-ip, qum-suv-sement-beton va boshqalar. Tayyor va yarim tayyor mahsulotlar sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan xomashyolar (sut, tvorog, shakar, suv, qum, qog'oz) mahsulot sifatini aniqlovchi belgilar. Uning tozaligi, ixchamligi, mustahkamligi, did bilan yaratilganligi, ozuqa bo'lsa to'yimliligi. U belgilarnipg mahsulot sifatiga ta'siri.

«Ilk iqtisodiy ta'lim tarbiya» dasturida ko'zda tutilgan mazmunni amalga oshirishda asosiy vosita «Tavarak-atrof bilan tanishtirish», «Elementar matematik tasavvurlarni o'stirish» kabi mashg'ulotlar va o'yinlar hisoblanadi.

Ilk iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar tizimi asosida bolalar iqtisod, mehnat, oila, jamiyat, boylik, mulkiy munosabatlar, savdo, bozor, pul, mahsulot kabi asosiy tushunchalar bilan tanitib, ularning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bolalarga ularni o'rab turgan moddiy olam (kiyim-kechak, jihozlar, oziq-ovqat) tabiat (jonli, jonsiz), jamiyat, undagi o'zgarishlar, ijtimoiy voqeа-hodisalar, (kishilar mehnati, ularniig natijasi) bilan

tanishtirib boriladi. Aynan mana shunday mazmundagi mashg'ulotlar jarayonida bolalarda ilk iqtisodiy tushunchalar shakllanadi, miqdor, kattalik, ko'plik, fazoviy tushunchalar haqida esa «Elementar matematik tasavvurlarni o'stirish» mashg'ulotlarida ega bo'ladilar. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda bolaning yoshi, xususiyati, yashash sharoiti hisobga olinishi, yaqindan-uzoqqa, konkretdan-abstraktga qarab borish qonuniyatiga va albatta, ta'lim-tarbiyaning uzviyiliga alohida e'tibor berish lozim.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishga asoslangan mashg'ulot matnlaridan misollar keltiramiz:

### **MAVZU: «TEJAMKORLIK NIMA?»**

Maqsad: Bolalarga «Qotgan nonlar» hikoyasi orqali tejamkorlik nima ekanini tupguntirish. Ularni nonning qadriga etishga, uni isrof kilmaslikka o'rgatish. Ularning lug'atiga «tejamkor» so'zini kiritish.

#### ***Mashg'ulotlarning borishi.***

Tarbiyachi: Bolalar, men sizlarga bir hikoya aytib bermoqchiman. Diqqat bilan qulq solinglar.

Kunlardan bir kun Karima dasturxонни yig'ishtira turib, unda ortib qolgan va bir oz suvi qochgan nonlarni to'pladi. Nonlarni olib borib, qo'ylarning oldiga solib kelish uchun ketayotgan edi, buvisi uni ko'rib debdi:

- To'xta, bolaginam, nonlarni tashlama. Buyoqqa olib kel.

Bunga hayron bo'lган Karima-buvisiga qaradi va:

- Buvijon, uni nima qilasiz? Axir, ular qotib qolgan nonlar. Oyim xamir qorib qo'yanlar. Hozir issiq non yopadilar, - dedi.

- Nima qilibdi, avval nonni isrof qilmaslik kerak. Keragini oz-ozdan sindirib eyish kerak. Tishlab qo'yib, tashlab ketmasdan oxirigacha eb qo'yish lozim. Tishlangan nonni hech kim emaydi. Qolaversa, uvol ham bo'ladi. Uvol qilaversak, uydan baraka qochadi. Qotgan nonlarni esa parrak-parrak qilib kesib qo'ysak, qurib turadi. Uni sho'rvaga solib ichsa mazza bo'ladi. «Non soldi» («Non palla») qilib eyish mumkin. Talqon qilib esa ham bo'ladi. Tushundingmi, qizim?

Biz urush vaqtida ko'p qiyinchilikni, ocharchilikni ko'rganmiz. Hattoki, nonni uvog'iga ham zor bo'lganmiz. Bir tishlam non topsak, uni ham ko'zimizga surtib e'zozlab eganmiz. Mana shunaqa, qizginam», deb ancha nasihat qildi.

Karima uzoq o'ylanib qoldi va qilgan ishidan uyaldi, yuzlari qizardi va buvisiga yuzlanib dedi:

- Buvijon, tushundim, endi aslo nonni uvol qilmayman!

Buvisi xursand bo'lib nabirasini bag'rige bosdi va peshonasidan o'pib qo'ydi.

- Oying issiq non yopayotgan bo'lsalar, uni tejab ishlatish kerak. Isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Chunki oying xamir qorib, nonni yasab, tandirga o't yoqib, cho'g'li tandirda yopib kelgunicha qancha mehnat qiladilar. Kattalar mehnatini qadrlash kerak. Kattalar mehnatining qadriga etgan insongina o'z mehnatining qadriga etadi. Non esa aziz narsa. Nonsiz hayot kechirish qiyin. Non ham – non, uvog'i ham – non.

Karima bu gaplarnipg asl ma'nosiga tushunganidan sevinib ketdi va:

- Buvijon, men oyimga qarashib yuboraman, - dedi-da, tandir tomon chopib ketdi.

### **Hikoya yuzasidan savollar berish:**

1. Karimaning qaysi ishi buvisiga yoqmadidi?
2. Buvisi Karimaga nimalar dedi?
3. Karimaning buvisi qotgan nonlarni nima qilar ekan?
4. Buvisi nima uchun «Non ham-non, uvog'i ham-non» dedi?
5. Tejamkorlik deganda nimani tushunasiz?

**III. «Sehrli doira» o'yini orqali bolalarga non haqidagi she'r, qo'shiq, topishmoq, tez aytish matnlarini takrorlatish**

## **MAVZU: MENING OTA VA ONAM NIMA UCHUN ISHLAYDILAR?**

Maqsad: Bolalarning turli xil kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va

ularga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ota-onalarining qadriga etishga o'rgatish, bolalar ongiga «maosh», «oylik» so'zlarining mohiyatini singdirish va lug'atiga kiritish.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar har kuni bog'chaga, aka-onalaringiz esa maktabga o'qish uchun, ota-onalaringiz ishga boradilar-a?

Tarbiyachi bolalardan ota-onalarining kasbi, ish joylari haqida so'raydi. Bolalarning birin-ketin javoblarini tinglaydi va shu tariqa turli xil kasblar haqida qisqacha suhbat o'tkazadilar.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar hech o'ylab ko'rghanmisizlar, ota-onalarimiz nima uchun ishga boradilar ekan-a? (Bolalarning javoblari).

Tarbiyachi: To'g'ri, bolalarning ota-onalarimsh ishlab har oyda maosh oladilar. Shu maoshni oilangiz kamchiligiga: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar, o'quv qurollari, xullas, zarur bo'lgan narsalarni xarid qilib olish uchun ishlatadilar. Bu bilan ular so'zlarni bekamu-ko'st, baxtli yashashlaringsh uchun astoydil mehnat qiladilar.

Agar ota-onalarini ishga bormasalar, biror hunar bilan shug'ullanmasalar maosh, ya'ni oylik olmaydilar. Bu esa oilamizda turli xil etishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Hatto bog'chamiz uchun to'lanadigan pulni ham to'lay olmaymiz.

Shuning uchun biz bog'chaga kelayotganmizda turli xil narsalarni sotib olib berishni talab qilib, ularning kayfiyatini buzmasligimiz kerak. Agar ular ishga yaxshi kayfiyatda ketsalar ishlari ham unumli, sermahsul bo'ladi.

Kechqurun esa ota-onalarimizni yaxshi, iliq, kayfiyatda kutib olishimiz kerak. Chunki ular kun bo'yi mehnat qilib, ishdan horib-charchab keladilar. Ularning mehnatini qadriga etishimog'imiz kerak. Chunki ular bu bilan o'zgalar manfaatini ham ko'zlaydilar. El-yurt uchun, odamlar og'irini engil qilish uchun, xalqimiz foydasi uchun mehnat qiladilar.

Masalan, o'qituvchi bolalarga bilim beradi, kasb-hunar o'rgatadi, ularning odobli, elga mashur bo'ladigan qilib tarbiyalaydi, shifokor esa dardimizga darmon bo'ladi, haydovchi esa uzog'imizni yaqin qiladi, tikuvchi esa bizni turli xil kiyimlar

bilan yasantiradi.

Shuning uchun biz ota-onalarimizga uy ishlarida yordam berishimiz, kiyimlarimizni, uy jihozlarni toza saqlashimiz, ularni asrab-avaylashimiz kerak. Chunki ular ota-onalarimizning bir oylik mehnati evaziga keladi.

Biz qanchalik ota-onalarimiz mehnatining qadriga etsak, ular bizdan shunchalik xursand bo'ladilar, charchoqlari yoziladi va hammangizga eng yaxshi narsalarni olib beraveradilar.

So'ng tarbiyachi T.Yo'ldoshning «Ota-on» she'rini o'qib beradi:

Ota-onai ikki so'z -

Biri qoshu, biri ko'z.

Bir-biridan qimmatli

Mehri daryo himmatli.

Ular o'zip o'yamas

Farzashsh sog' bo'lsa bas.

Goh siqilib tursa ham,

Gohi yig'lab, kulsa ham,

Hammasinga chidarlar,

Ular qo'sha chiporlar.

### **Mavzu: NONVOY MEHNATI BILAN TANISHTIRISH**

Maqsad: Bolalarni nonvoylar mehnati bilan tanishtirish, ularning kasbga bo'lgan muhabbatini oshirish, mehnatsevarlikka o'rgatish. Bolalarni nonni isrof qilmasdan uni e'zozlashga o'rgatish. Plastilin bilan ishslash malakasipi gaakllapgirish, Non shaklini yasash.

Kerakli jihozlar: Tabiiy materialdan yasalgan non, plastilindan yasalgan non, non va uni tayyorlash jarayoni tasvirlashga rangli rasmlar.

#### **Mashg'ulotning borishi:**

Tarbiyachi: Bolalar, hozir biz sizlar bilan birgalikda nonvoylar mehnati bilan tanishamiz. Biz hammamiz nonni juda yaxshi ko'ramiz, agar non bo'lmasa, biz hatto, choy ham ichmaymiz. Dasturxonimizni chiroyli qilgan, bezagan bu non hisoblanadi.

Nonni ko'rsak, hammamizning ishtahamiz ochilib ketadi-a?

Nonugata yo tushlikka	Chaqqon, abjir shoferlar
Yozarkanmiz dasturxon,	Yukchilarni shoptirar,
Dasturxonga zeb berib	Mo'l-ko'l oltin g'allamiz
Bo'y taratar kulcha pon.	Omborlarga tashilar.
Noz ne'matning sarasi	Tegirmonchi akalar
Va tabiat ne'mati,	Mahgal etmas nonvoyni,
Bu ne'magni yaratgan	Nopvoy esa yopadi
Oltin qo'llar mehnati.	Tapdir-tandir shirmoyni.
Kech kuzakda sochib dop	Shu bois har burdasin
Kelguncha yoz saraton,	Tabarruk dsb bilaman,
Bug'doyzorda ter to'kar	Yo'l ustida uchrasa
G'allakor, asl dehqon.	Olib ko'zga so'raman.
Benoyop qir-adirda	Nonko'r ekan demasin
To'lishganda boshoqlar,	Izza qilib keksalar,
Kopbaynchi amaki	E'zozlasa nonni kim
O'rimga o'zin chog'lar.	Qadri tog'dek yuksalar.

**(Do'stjon Matjon she'ri)**

«Non» she'ridan ham ko'rini turibdiki, nonning paydo bo'lishi, uni pscha kishi qo'lidan, mehnatidan bizga etib kelganligining guvohi bo'ldingu. SHuning uchun ham nonni e'zlashimiz, uni isrof qilmasligimiz kerak.

Xalqimiz «Nonning ushog'i ham non», deb bejiz aytmagan-ku. Agar nonvoy qo'li engil, epchil bo'lsa pishirgan noni ham mazali bo'ladi. Uyimizda hammaizning onamiz cho'g'li tapdirdan issiq, mazali, kulcha nonlarni pishirib beradi-a?

Hozir sizlarga non haqida qo'shiq o'rgataman.

### ***Qulq solinglar:***

Nop yopganda, nop yopganda, mening oyim Issiq kulcha, issiq kulcha yopar doim. Kulcha juda mazzali! Sedanali jizzali! Egan sari egim kelar, Rahmat oyi, degim kelar.

- Qo'shiq sizlarga yoqdimi, bolalar? Endi, bu qo'shiqni yodlab kelasizlar. Bugungi mashg'ulotimizda sizlar bilan loydan non shaklini yasashi o'rganish. Kim nonni yaxshi ko'rsa, chiroyli, shirin nonlar yasaydi. (Tarbiyachi bolalarga loy tarqatib chiqadi, bolalar non yasaydilar.) Tarbiyachi chiroyli non yasagan bolalarni rag'batlantiradi. Ular bilan yana bir marotaba qisqa suhbat olib boradi.

### **Mavzu: BOLALARINI PUL BILAN TANISHTIRISH**

Maqsad: Bolalarni avvalo, milliy valyutamiz O'zbekiston so'mi bilan tanishtirish. Ularping rangini farqlash, katta-kichikligini farqlashga o'rgatish, unda nimalar tasvirlanganligini bilish.

Mashg'ulotning borishi: Bolalar, bizga ma'lumki. o'zimizning o'zbek pulimiz 1992 yilda qayta ishlanib, muomalaga kiritildi. Biz hammamiz pulni juda yaxshi ko'ramiz-a? Bolalar, biz pulga muzqaymoq, vafli, pechen'e, shokolad olib eymiz. Hozir bizda eng katga pul ming so'mlik. Eng kichik pup bir so'mlik. Biz pulni yaxshi ajratamiz. Oz bersa, ko'pini ber, deb injiqliq qilamiz, To'g'rimi? Biz bilamizki, 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500 va 1000 so'mliklar bor. Ularping rangini yaxshi bilamiz. 1, 5, 10, 25, 100, 200 so'mliklar ko'k rangda, 3 so'mlik esa qtil rashda. Sizlar qaysi pulni yaxpga ko'rasizlar?

Bolalar: Biz 25, 100 so'mliklarni yaxshi ko'ramiz. CHunki bu pullarga ko'p narsa keladi. YApa oyimiz bizga ko'p pulga ko'yak, do'ppi, tuflicha olib beradi-da!

Tarbiyachi: Bolalar, sizlarga onangiz ko'chada bog'chaga olib ketayotib 3, 5 so'mlik pul berib, sizga har xil narsalarni olib berib ketadi. Sizlarga shu pulni bermasa, bog'chaga kelmaysizlarmi?

Bolalar: Yo'q. Qachon o'zlari olib bersa olamiz, biz ota-onamizii majburlamaymiz.

Tarbiyachi: Bolalar, pul yaxshimi yoki yomonmi?

Bolalar: YAxshi-da.

Tarbiyachi: Sizlar ham katga bo'lsalariz, uplab pul topasizlarmi? Bolalar: Ha. Biz ham dadamiz, oyilarimizdek ishlab, pul tonamiz. Kimki mehnat qilsa, pulping

qadriga etadi.

Tarbiyachi: Bolalar, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kattami-kichikmi halol mehnat qilib, pul topish yo'llarini qidirmoqda. Demak, bolalar, ota-onalarimiz o'z mehnatlari evaziga pul topishar ekan. SHuning uchun biz ham bo'lar-bo'lmasga injiqlik qilib, ulardan pul olmasligimiz kerak ekan.

Hozirgi sharoitda kim mehnat qilmasa, yaxshi kiyina olmaydi, yaxshi eb-icha olmaydi. SHunipg uchui hozirdan biz mehnatsevar, bog'cha, maktablarda yaxshi bilimlar olib, o'qib katta bo'lganimizda yaxshi ishlarda ishlab yoki hunar o'rganib, halol mehnat bilan pul topish yo'llarini biliшимиз kerak.

## **MAVZU: IP-YIG'IRUV VA TO'QUV SEXLARI BILAN TANISHTIRISH**

Maqsad: Bolalarpi ip-yigiruv, to'quv sexlari bilan tanishtirish. Ular lug'atiga kalava, pilik, dasttoh kabi so'zlarni kiritish. Kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun material: turli xil magolar, dastgohlar rasmlari, ko'rsatkich tokchasi.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, biz bugun sizlar bilan o'tkazadigan mashgulotimizda in-yigiruv, to'quv sexi bilan gaplashamiz. Mana, bu rasmda nimani ko'ryapsizlar? Hammangiz diqqat bilan rasmga qaranglar-chi? Mana bu nima? Yo'q, bolalar, bu temir emas. Bu dastgoh. Bu dastgoh yordamida ip yigiriladi. Maia, bu uzun-uzun qilib ilib qo'yilganlarni ko'ryapsizlarmi, bular shqlar. Bu iplarni ana gau dasttohda yigiriladi. Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi deyishadi-a? Kelinglar, bolalar, biz bugun ip-yigiruv, go'quv fabrikasiga boramiz va eshitganlaringni o'z ko'zlarining bilan ko'rasizlar.

Tarbiyachi bolalarni in-yigiruv, to'quv fabrikasi yoki sexga olib boradi.

Tarbiyachi: Mana, bolalar, bu ip-yigiruv, to'quv fabrikasi. Juda baland va katta ekan-a? SHunipg uchun bu erda juda ko'i odamlar ishlashadi.

To'g'ri, biznitng bog'chamizda ham ko'p bolalar bor. Lekip bu erdag'i odamlar bog'chamshdagi bolalardan ham ko'p. SHunipg uchun ham bu fabrikaning binosi bizning bog'chamiz binosidan katta.

YUringlar, fabrikaning ichkarisiga kiraylik. Mana, bu katta bino-sex. Bunday sexlardan fabrikada juda ko'p bo'ladi. Mana, bu - biz guruh xonasidagi rasmda ko'rganimizdek - dastgoh. Bolalar, bu erda dastgohlar qancha ekan? Ha, yaxshi bolalar, juda ko'p ekan-a? Har bir ishchida bittadan dastgoh bor ekan. Bu dastgohlar yordamida ip yigirilib, kalava qilinor ekan. Mana, bu - kalava qilingan ip. Bolalar, mana bu to'p bo'lib turganlarni ko'ryapsizlarmi? Bu paxta-a? Mana shu paxtalarni oyilarimiz, dexqon xolalarimiz niholligidan parvarishlab, ularni vaqtida sug'orib, tagini yumshatib etishtiradilar. Hosil etilib, g'o'zadan paxtalar ochiladi, so'ng uni yig'ib-terib olinib, kattakon mashinalarda, traktorlarda fabrikalarga, korxonalarga, zavodlarga jo'natiladi. So'ng bu paxtalardan ko'rib turganimizdek, mana shunaqangi iplar tayyorlanadi. Bu iplardan bizga kiyimlar tikiladi, paypoqlar, jemferlar to'qiladi. Poyafzallarimizni tikish uchun iplar tayyorlanib, ishlatiladi. Mana, bu kalava kilingan iplarni boshqa sexga uzatiladi. U erda bu iplardan kattalar va kichiklar uchun har xil o'lchamdag'i paypoqlar to'qiladi.

Ko'rdilaringmi, bolalar, bizning bu paypoqlarimiz, bizgacha butun holda etib kelgunga qadar juda ko'p ishlar bajarilar ekan. Biz bu ishlarni ko'zimiz bilan ko'rdik, ularning mehnati naqadar og'ir ekanligiga amin bo'ldik. Biz bularning qadriga etishimiz kerak. Kiyimlarimizni ozoda, chiroyli kiyishimiz kerak. SHunda bsh ularning mehnatini qadrlagan bo'lamic.

## O'YINLARNING BOLA TASAVVURIDAGI O'RNI

Bolaning mashg'ulotlar jarayonida olgan iqtisodiy bilimi, tushuncha va tasavvurlarini mustahkamlashda, chuqurlashtirish va kengaytirishda o'yinlarning o'rni benihoyadir. Zero, bola o'ynab turib, dunyo taniydi. Bola o'yinda aks ettirayotgan narsani tezroq bilib olishga qiziqadi va uni xotirasida mustahkamlab oladi.

SHuning uchun pedagog muktabgacha yoshdag'i bolalarga iqtisodiy bilim

beruvchi yoki iqtisodiy bilimlarini mustahkamlovchi bolalar o'yinini tashkil qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishlari zarur:

- o'yining mazmuni ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi;
- aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi,
- o'yin harakatlari faol ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak.

SHuningdek, hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlar va kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish va bu bilan bolalarning o'yinda xayrihox va xursand bo'lislarni ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining barcha jihatlariga: ongi, his-tuyg'ular, irodasi, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan ham shuningdek, iqtisodiy tarbiyalashda ham foydalanish lozim. SHunda o'yinlar natijasida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi.

Misol uchun bolalarning eng qiziqarli o'yinlaridan biri bo'lgan «Do'kon-do'kon» o'yinini olaylik. Bu o'yinni syujetli-rolli o'yinlar sarasiga kiritish mumkin. Bunda qatnashuvchilar bitta sotuvchi, 3 yoki 4 xaridor. Peshtaxta o'rnila stoldan foydalanish mumkin. Do'kon shaklini tanlash guruh imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda «O'yinchoq do'koni», «Oziq-ovqat do'koni» yoki aralash mollar do'koni sovun va tish pastalari bir tomonga, kiyim-kechaklar bir tomonga, xullas, har bir mahsulot o'ziga mos tovarlar guruhi bilan peshtaxta ustiga chiroyli qilib terib qo'yiladi. Sotuvchi magazinga kelgan xaridorlarni xushmuomalalik va odob bilan kutib oladi. Xaridorlarning har biriga qanday xizmat borligini, zarur mahsulotni bir zumda muhayyo qilajakligini bildiradi. Xaridorlardan biriga tish pastasi kerak bo'ladi va sotuvchi bor pastalarni ko'rsatib, narxlarini aytadi. SHuningdek, sotuvchi pastalarni nomlarini, qaerda tayyorlanganligini ham, nima uchun pastalar narxi bir-biridan farq qilishini ham bilishi lozim. Bu bir tomondan, boladan aqliy bilim talab

qilsa, ikkinchi tomondan hozirgi iqtisodiyotning shartlaridan bo'lgan reklamadan ham foydalanadi va reklamaning ahamiyatini yanada tushunib etadi.

Xaridorlarni kutib olish, ularga xizmat qilit orqali esa bolada avvalo, muomala madaniyati, so'z boyligi va kishilar bilan muloqotga kira olish qobiliyatları o'sib boradi. Sotiladigan narxlar esa bolalarning

«Elementar matematik tasavvurlarni o'stirish» mashg'ulotidan olgan bilimiga qarab qo'yiladi. CHunki, bunda bola pulni bilishi, qancha qaytim qaytarish kerakligini ham bilish kerak. Peshtaxtaga sotiladigan mahsulotlarni chiroqli qilib terib qo'yish orqali boladagi badiiy did. go'zallikka intilish kabi tuyg'ularni o'stirish mumkin. SHuningdek, bu orqali bola mahsulotlarni tartib bilan terish xaridorlarning diqqatini tezroq jalb qilishini va olib kelgan mahsulot tezroq o'z egasiga etib borishini tushunib etadi. Mahsulotlarni reklama qilish orqali uni qaerdan olib kelishini, O'zbekistonning qaysi davlatlar bilan savdo aloqalari mavjudligini bilib oladi va itkazadi.

Quyida ana shunday o'yin ishlanmalaridan namunalar keltirilgan.

## **1. «TEJAMLI BOLA BEJOG'LI BOLA».**

Jihoz : Qo'g'irchoq, Bitarvoy, sandiqcha.

YAngi so'zlar: Iqtisod, tejamkorlik.

Maqsad: Bolalarga «Iqtisod» nima ekanligi haqida bilim berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin harakatlana oladigan, barkamol, etuk bolalar bo'lib etishishlari uchun, ularni tejamli, tadbirkor bo'lishga o'rgatish, so'z boyliklariga iqtisodga oid yangi so'zlarni kiritish.

Mashg'ulotning borishi: Xona eshigi taqillab, dono Buvijon sandiqcha ko'tarib kirib keladilar. Bolalar salomlashib, kutib oladilar.

- Buvijon sandiqchada nima bor? - dsb tarbiyachi murojaat qiladi.

- Ha, bunda men Bilarjon nevaramni olib kelganman, - deb sandiqchani ochadilar. Sandiqcha ichidan-Bilarvoy «Assalomu-alaykum» deb

chiqib keladi. Bolalarga Bilarvoy murojaat qiladi:

- Do'stlarim, mening ismim Bilarvoy. Bu ismi-chi, bolalar, har narsani bilishga qiziqib, savollar beraverGANIMdan buvijonim quyganlar. Bunijonim menga bir kuni «Iqtisod» degan ertak aytib berdilar. Men hozir sizlarga shu ertakni aytib bermoqchiman, maylimi?

«Iqtisod» bu katta mamlakat ekan. Unda hamma narsa tejab, isrof qilmasdan ishlatilar ekan. U mamlakat bolalari kiyimlarini kir qilmasdan ozoda yurar ekanlar. Non esalar ushog'ini erga to'kmay, ortganini uloqtirmay, ovqat esalar to'kmay tanavvul qilar ekanlar. Kiyim boshlarini, o'yinchoqlarini yana o'z joyiga chiroyli qilib qo'yar ekanlar.

«Iqtisod» mamlakatida bolalarining qiladigan bu ishlari «tejamkorlik» deb aytilar ekan. SHuning uchun ularning «Iqtisod» mamlakatlari doimo gullab yashnar ekan.

Bolajonlar, ertagim sizlarga yoqdimi? Qani, u bolalar qilgan ishni biz ham qila olamizmi? Doimo kiyim boshlaringizni ozoda tutib, o'yinchoqlarni o'ynab bo'lib, o'z joyiga qo'ya olasizmi, sindirib tashlamaysizmi, nonni eb ortiqchasini o'z joyiga qo'yasizmi, tugmangiz uzilsa tashlab yubormasdan olib qo'yasizmi? Ana shunda biz ham o'sha

1. YAngi bozor.

2. Mashina bozori.

3. Tovuq bozori.

4. Dehqon bozori.

5. Qo'y bozori.

6. Qovun bozori.

7. Ko'kat bozori.

8. Ko'chat bozori.

9. O'tin bozori.

Bozorda ikki xil ish amalga oshadi: I. Sotuvchi o'z tovarini sotadi. Tovar pulga

almashadi. 2. Xaridor pulga tovar sotib oladi. Pul tovarga almashadi. Har ikki tomon ham bundan manfaatdor bo'ladi.

«Iqtisod» mamlakatining bolalariga tenglashamiz. SHunda bizning O'zbekiston mamlakatimiz ham «Iqtisod» mamlakatiga o'xshab, gullab yapshaydi. To'g'rimi. bolajonlar? - deya Bilarvoy bolalar bilan xayrlashib Buvijoni bilan birga chiqib ketadilar.

## 2. «FABRIKA» o'yini. Ekskursiya.

**Jihoz:** Kiyim-kechaklar, «yorliqlar, rasm-qalam, qog'oz, rasmlli kartochkalar.

**YAngi so'zlar:** Iqtisod, yorliq, mukofot, maosh, boshqaruv, narx, vaqt.

**Maqsad:** Boshqaruv haqida bilim berish, sifatdi va sifatsiz mahsulotlar, unga sarflangan vaqt haqida, xazina, maosh, narx haqida tushuncha berish, fabrika belgisini o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi: U erning direktori va sex boshliqlari bo'ladi. Qizlar o'tirib, qo'g'irchoqlarga ko'ylaklar tikadilar, Sex boshlig'i ularning bajargan ishlarini ko'rib sifatlari va sifatsizga ajratadi-di» SHuncha ko'ylakcha tikdingiz» deb maosh to'lanadi Pichilgan va tikilgan ishlar alohida joyga qo'yiladi. «Tayyorlariga fabrika nomi yozilgan yorliqlar qo'yib tikiladi va sotish uchun bog'cha bozoriga chiqariladi. Qancha ko'p va tez sotilsa, ishchilar mukofot oladilar.

## 3. PUL MUOMALA VOSITASI.

### «Bozor qanday joy?»

**Jihozlar:** bozor rasmi, bozorda sotiladigan mahsulotlar rasmi.

**YAngi so'zlar:** sotuvchi, xaridor, tovar, bozor, jahon bozori.

**Maqsad:** bolalarni bozor zurlari bilan tanishtirish, u erda amalga oshiriladigan ishlar haqida ma'lumot berish.

Mashg'ulotning borishi: Mahsulotlar sotiladigan va sotib olinadigan joy bozor deyiladi. Bozorda tovar ayirboshlash xaridor va sotuvchi munosabati orqali yuzaga keladi. Sotuvchi tovar egasi. Xaridor-o'z ehgiyoji uchun turli mahsulotlarni sotib oluvchi shaxs, Tovar bozorda oldi-sotdi orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli.

«Moling sara bo'limguncha, borish sara bo'lmas» (maqol). Insonlar mahsulot ishlab chiqara boshlabdilarki, bozor paydo bo'lgan. Qani, bolalar, Qo'qon shahrimizda qanday bozorlar bor?

Bir sanab chiqaylik.

Bozorning eng kattasi Jahon bozoridir. U erda dupyodagi eng **sifatli** mahsulotlar sotiladi. Bular: paxta, oltin, gaz, qorako'l teri, neftъ, pilla, ko'mir kabi qazilma boyliklar, zaruriy ashyolar va hokazo.

(Raqs: «Bozor borodi qizgina»).

Bu mahsulotlarning kerakligi yurtimiz uchun olib qolinadi va ortiqchasi chet **ellarga** sotiladi. O'rniga kerakli bo'lgan shakar, kartoshka, dori-darmon, un, har xil mashinalar sotib olinadi.

#### 4. «DO'KON» o'yini.

**Didaktik vazifikasi:** sotib olish zarur bo'lgan narsani tasvirlashga o'rgatish, xushmuomala bo'lishga, bir-birga e'tiborli bo'lishga do'kondagi muomala normasi, xushmuomalalik bilan so'rashish, rahmat aytish.

**O'yin qoidasi:** tasvirlanishiga qarab, sotib olinadigan buyum topish, kim birinchi bo'lib topsa, o'sha narsani sotib olishga boradi, xarid qilingan o'yinchoqlarni keyin bolalar o'ynaydi.

**O'yin harakatlari:** Topishmoq aytish, topish, sotish va sotib olish.

**O'yining borishi:** Tarbiyachi ma'lum qiladi: Bugun byuda yangi magazin ochildi. (O'yin boshlaguncha narsalarni peshtaxtaga qo'yib, sotuvchi tayinlanadi). Kim magazinga borib, narsa sotib olsa, olgan narsasini bizga ko'rsatmaydi. Biz so'raymiz: «Nima sotib olding, bizga ko'rsat!» Bizga javob beradi: «Agar nimaligini topsalaring ko'rsataman».

Bolalardan biri o'yinchoqni tanlab, so'zlay boshlaydi:

- Men tunda yoritadigan narsa sotib oldim. U metalldan, chirog'i qizil.

-Fonarcha, - deb topadilar bolalar.

Birinchi xaridorni tarbiyachi tayinlaydi. Hamma bolalar do'konga orqa o'girib

o'tiradilar, xaridor sotuvchiga xushmuomalalik bilan so'zlab, o'ziga yoqqan narsani so'raydi va tayoqcha bilan ko'rsatadi. Sotuvchi narsani xaltaga solib, xushmuomalalik bilan deydi: «Marhamat!». Xaridor sotuvchiga rahmat aytib xayrashdi. «Vali nima olding?» deb so'raydilar.

-Avval topinglar, keyin ko'rsataman, - deydi Vali, - men shunday kichkina narsa sotib oldim. Stadionda hakam uni o'zi bilan olib yuguradi, kim qoidani buzsa uni chaladi.

-Hushtak! Ko'rsat!

Vali olgan narsani ko'rsatadi va birinchi bo'lib javob bergen bola xaridor bo'ladi. SHunday qilib, o'yin uning hamma ishtirokchilari o'yinchoq sotib olguncha davom etadi.

O'yinni tushuntirish bilan yakuplash mumkin: «Magazin tushlik vaqtida yopiladi». Bolalar o'yinchoqlarni o'ynaydilar, bir-birlari bilan almashtiradilar. O'yin uchun unutilgan o'yinchoqlarni qo'yish kerak. Tarbiyachi o'yinchoqlarni qanday o'ynash lozimligini eslagipsh mumkin.

Masalap: «Vali! Xokkey o'ynaganlaringda endi sen hakam bo'lishing mumkin. Ssnda hushtak bor». Bolalar kim xokkey o'ynapshpi kelishib oladilar. «Mep esa aloqachi bo'laman. Menda fonarcha bor. Men kechasi ham dushmanni ko'ra olaman. Kel, Sanjar aloqachilar bo'lib o'ynaymiz! Men senga ham fonarchamni berib turaman».

Magazindan olingan narsani olish orqali bolalarda mustaqil o'ynash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

## 5. «**BUNI QAERDAN SOTIB OLISH MUMKIN?**»

**Didaktik vazifasi:** Bolalarni *turli* mahsulotlar turli magazinlarda sotilgan haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Mahsulotlar oziq-ovqat do'konlariga, sanoat do'konida, kitob do'konida har xil bo'ladi: oziq ovqatlarga meva-sabzavotlar, nonvoyxona, sut kabilar va sanoat mollariga esa poyafzal, kiyim-kechaklar, gazlamalar, sport mollari kabi guruhlarga bo'linadi. Bolalarni do'konlarni bir-biridan farqlashga o'rgatadi. Ularda ota-onasiga engil xarid qilib yordamlatish istagini

tarbiyalaydi.

**O'yin qoidalari:** Kichik suratlarni katga kartochkalar bilan moslashtirish. O'yin «Loto» usulida o'tkaziladi. Xato qilmay, hamma kataklarni berkitgan bola g'alaba qiladi. (yutadi).

**O'yin harakatlari:** Izlat, topish, kagaklarni berkshish.

**O'yining borishi:** O'yinni boshlashdan avval tarbiyachi bolalar bilan suhbat o'tkazadi. Kerakli narsalarni onalari qaerdan sotib olinganlarini bilishadimi, qanday do'konni biladilar, do'konlarni nomlari qanaqa, ular ham do'konga boradilar, otanonalariga yordam beradilarmi? Suhbatdan so'ng tarbiyachi katta kartochkalardagi do'kon satrlarini ko'rsatadi. Bolalar do'kon peshtoqidagi yozuvga qarab, bilib oladi. (Ba'zi bolalar «non», «sut» degan yozuvlarni o'qiy oladilar).

Tarbiyachi: Hozir esa bolalar, o'ynaymiz. Mep sizlarga kichkina kataklarni tarqatib beraman. Sizlar esa bularni qaysi do'kondan sotib olish kerakligini aytasizlar va katta kartochkani ustiga qo'yasizlar.

SHoshilmanglar, diqqat bilan suratga qaranglar!

Tarqatib bo'lgach, tarbiyachi ruxsat beradi: «O'yinni boshlang!» Bolalar stolning oldiga kelib, o'z kartochkalaripi katta karta ustiga qo'yadilar. «Sut» deb yozilgan do'kon oldiga shisha, sut paketlari, yog', qaymoq, tvorog va boshqa narsalarni qo'yadilar. Tarbiyachi to'g'rilib tekshirib turadi rag'batlatiradi. O'yin barcha kerakli narsalarni magazindan sotib olish mumkinligini, ular turli xil bo'litsi bilib olishiga yordam beradi. Oddiy narsani sotib olishga, uyiga yaqin bo'lgan do'konga borishni o'rgagadi

## 6. «ISHLASH UCHUN KIMGA NIMA KERAK?»

**Didaktik vazifasi:** Bolalarning ishlaganda kimtilarga gur.shmehnat qurollari yordam berishi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash kattalar igasha qiziqishpi garbiyalash, mehnat qilgani o'rgatshp.

O'yin qoidalari: Katta xarflardagi katakchalarni o'ziga mos keladigan suratlar bilan berkitish

O'yin harakatlari: Kerakli kartochkalarni sopiga. kim tezroq katta kartadagi

kagakchalarni berkitish musobaqasi.

O'yinning borishi: Uyin «Loto» tarzida o'tkaziladi. Katta kartalarda opshaz, vrach, shofyor, cho'pon tasvirlangan. Tarbiyachi bolalarning kasblar, mehnat qurollari to'g'risidagi bilimlarini aniqlaydi. Keyin gapida bulgan «Lotto» o'yini qoidalarini eslatadi. Agar bolalar bu o'yinni o'ynashmagan bo'lsa, o'yin qoidasini tushuntirish kerak. Bitta katta kartani olib, uni quradilar, keyin unga mos keladshan suratni, masalan, opshazga kastryulka, cho'mich, go'sht qiymalagich, choynak kabi narsalarni unga quyadilar. Pedagog qiynalayotgan bolaga savollar bilan yordam beradi.

## 7. «QO'G'IRCHOQNING YANGI UYI».

**Didaktik vazifasi:** Umumtashgiruvchi so'zlar: mebelъ, kiyim, oyoq kiyimi, idish-tovoq, o'yinchoq kabilarni to'g'ri qo'llash va tushunishni mashq qildirishga, bolalarda ixtiyorilikni, o'yinchoqlarni zhtiyotlagani, tengqurlari bilan o'ynash istagini tarbiyalash.

O'yinning qoidalari: YAngi qo'g'irchoq yasaydigan xonaga aynan so'zga taalluqli bo'lgan narsalarii olib kirishi kerak. Narsalarni biror narsaga solish yoki ma'lum joyga quyish.

O'yinning harakatlari: Xonani yangi qo'g'irchoq uchun jihozlash, kerakli narsalarni qidirish.

O'yinning borishi: Tarbiyachi o'yin burchagini barcha o'yinchoqlardan holi qiladi va faqat polda gilamnigina qoldiradi. Hamma narsalar, o'yinchoqlar xonaning devori yonida bir chetda stolda turadi.

- Bolalar, bugun biz yangi uyga ko'chamiz. «Raъno degan qo'g'irchoq biznikiga keldi, biz uning xonasini jihozlashga yordam berishimiz kerak. Kelinglar, yangi qo'g'irchoq bilan tanishaylik, - deya o'yinni boshlaydi tarbiyachi.

Bolalar qo'g'irchoqni ko'radir, o'zлari tanishadilar. Tarbiyachi deydi: «Mana, endi, biz «YAngi uyga ko'chish» o'yinini o'ynaymiz. Raъno sizlarni qanday o'ynay olishlaringni ko'rib turadi. O'yin qoidalari shunday: men narsalarni bir aytaman, sizlar esa kerakli narsalarni Ra'no yashaydigan uyga olib kirasiszlar. Hushyor

bo'linglar! Bizga uy jihozlari kerak bo'ladi. Sevara, YULDUZ. Mahliyolar boradilar va uy jihozlariga kiradigan hamma narsani olib keladilar, qolganlar esa tekshiradi: ular hammasini olib kelishganmi, yo'qmi. Qizlar qo'g'irchoq mebelini gilam ustiga joylashtiradilar. Tarbiyachi davom etadi:

- Endi, Vohid, G'ani va Vali borib, idishlarni olib keladilar (ovqat va oshxona idishlarini). Bolalar idishlarni keltirib stolga qo'yadilar. Hamma bu ishni batartib, bajarilishini kuzatib turadi. Oyoq kiyimlarini yana bir guruh bolalar olib keladi. Ra'no biznikida yaxshi yashashi uchui yana nimalar olib kelish kerak?

- O'yinchoqlarni, ko'p o'yinchoqlarni, - deydi bolalar. Bolalar o'yinchoqlarni olib kelib, gilamga, tokchaga qo'yadilar.

Bu o'yinda umumlashtiruvchi tushunchalar. Mustahkamlanadi va muhim, tarbiyachi bolalarni ijodiy o'yinga tortadi: yangi kelganga g'amxo'rlik qilish, u bilan o'ynash, unga yangi uy yasatish ko'nikmasi tarbiyalanadi. O'yinda ixtiyorilik, batartiblik tartiblanadi. O'yin burchagini o'zi jihozlab olish ko'nikmasi shakllantiradi.

## 8. «KIM MEHNAT QILDI?»

Didaktik vazifasi: Kattalar mehnati to'g'risidagi bilimlarini aniqlash, kattalar mehnatini xurmatlash, unga xavas uyg'otish.

O'yin qoidalari: Ishlab chiqarilishiga qarab narsalarni guruhlarga ajratish fabrika, zavod (ishchi) va fermer (dehqon).

O'yin harakatlari: Ikki komandaning «Dehqonlar» va «Ishchilar» ning musobaqasi

O'yinning borishi: O'yin uchun zarur narsalarni shunday tanlash kerakki, bolalar bilib olsinlar, ularni kim qildi, etishtirdi yoki o'stirdi. Boshoqlar, sabzavotlar, mevalar, paxta chanogi, poliz ekinlarining urug'lari, asal (bankada), O'yinchoqlar, qo'g'irchoq kiyimlari, oyoq kiyimi, idishlar, mebel na hokazo. Bu narsalar stolda turadi.

- Bu nima? Buni kim etishtirgan?

- Dehqonlar!

Tarbiyachi narsani boshqa stolga qo'yadi va teshik kulchani ko'rsatadi:

- Bu nima?

- Teshik kulcha!

- Kim uni etishtirgan? -Nonvoylar!

- Nimadan?

- Bug'doydan!

YAna shu kabi savollar bilan murojaat etiladi («Bug'doyni kim o'stirdi? Kim uni un qildi?»).

SHunday qilib, tarbiyachi bolalarga hamma narsalarni kishilar etishtirganini, ularning mehnati bir-biriga bog'liq ekanini tushuntiradi. «Tetik kulchani qaysi tomosha qo'yamiz?» desa, bolalar: «Ikkala tomonga ham», deb javob berishadi.

Narsalar ikki guruhga ajratib bo'lingach, tarbiyachi o'yinning bu qismini shu so'zlar bilan yakunlaydi. «Bizni o'rab turgan narsalarning hammasi mehnatkash inson qo'llari bilan yaratilgan. Ko'rdingiz-mi, biz qapcha narsalarni ajratdik. Endi, «Dehqoplar» va «Ishchilar» o'yinini o'ynaymiz. «Boshladik!» degan xabarni bersam, ikkala guruh xonadagi narsalarni ikki tomonga yig'adi. Bir tomonga ishchilar qo'li bilan qilipgan narsalarni, ikkinchi tomonga dehqonlar etishtirgan narsalarni ajratadilar. «To'xtat!» komandasidan keyin ishning to'g'ri bajarilgani tekshirib chiqiladi. Xato qilmagan guruh yutib chiqadi. Ularni qarsak chalib olqishlaydilar.

## **9. «TIJORAT DO'KONI» o'yini.**

**O'yinniig maqsadi:** Reklama, do'kon turlari, tijorat nima, ustama narx nima ekanini, muomala madaniyatini garbiyalat va savdo qilitiga o'rgatit.

**Kerakli jihozlar:** sovun, shampun, tish pastasi, soda, oziq-ovqat qog'ozlari.

**YAngi so'zlar:** tijorat, tanga, ustama haq, tijoratchi.

**O'yinning borishi:** «Gulruh» tijorat do'koni. Peshtaxtaga chiroylik sovun, shampun, soda, tish pastasi, oziq-ovqat qog'ozlari qo'yiladi. Tijoratchi va oluvchi bo'ladi. Hamma narsalar reklama tarzida chiroylar qilib teriladi.

- Assalomu alaykum, onajon. Menga ana u sovuningizni ko'rsatib yuboring.

- Xo'p bo'ladi.

- Bu pecha pul turadi? Unisi-chi?

- Unisi 10 so'm, bunisi 25 so'm?

- Nimaga unisi 10 so'm, bunisi 25 so'm, onajon?

- 25 so'mligi import. Turkiyadan keltirilgan. CHet eldan samolyotda olib kelipgan. SHuning uchun uchun 25 so'mdan sotiladi. 10 so'mligi esa o'zimizniki.

So'ngra boshqa xaridorlar ham so'raydilar: «Menga bitta vafli bering». «Menga 2 ta ro'molcha». «Menga bitta yaxshi tish pastasi bering». «Tayyor kuylaklarning menga loyig'i bormi?»

«Hozir qarab ko'raman», «Mana, sizga loyig'i ham bor ekan», «narxi uncha qimmat emas», «juda chiroylar va chidamli matodan tikilgan» kabi javoblar bilan sotuvchi xaridorlar ko'pglini olishga harakat qiladi

## **10. «BANK» o'yini**

**O'yining maqsadi:** Bank haqida bolalarga tushuncha berish, u erda amalga oshiriladigan ishlar va u erda kimlar mehnat qilgani, kupyura nimaligi, pul muomala vositasi ekanini o'rgatish, bankni qattiq nazorat qilinganini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** milisioner ustboshi, 2 ta oynakchali moslama, kartondan yasalgan pullarining qiymati yozilgan kartochkalar.

**YAngi so'zlar:** bank, hisobchi, kuiyura. sul, chek, valyuta, dollar.

**O'yining borishi:** Xazinani kirish eshigi oldida milisioner turadi. Ichkarida esa 2 ta xona va xushtag oynakchasi bor. U erda ikkita hisobchi o'tiradi.

Bolalardan biri birinchi kassa-tuynukchaga yaqinlashadi va «Onajon, bog'cha bolalarining to'lov pulini qabul qilib oling» deydi. Xazinachi «Pullarni kupyura qildingshmi?» deb so'raydi. Bola «Yo'q» deb javob beradi. «Pullarni bir xil qilib taxlang». Mijoz-bola pullarini 10, 5, 3 so'mlik qilib taxlaydi. So'ngra xazipachiga uzatadi. Ikkiychi kassa-tuynukka yana boshqa bola borib: «Ona, 10 so'm pulim yirtilib ketdi, uni nima qilsam bo'ladi?» deb so'raydi. Xazinachi «Pulingiz yirtilgan bo'lsa, biz almashtirib beramiz» deya oladi va bolaning qo'liga butun 10 so'mlik beradi. YAna bir mijoz tashkilot xaznachisi sifatida ishchilar uchun ish xaqi olishligini aytib, ikkinchi kassaga murojaat qiladi va pul oladi. So'ngra bankdan chiqib ketiladi. O'yining 2-qismida pullar miqdori yozilgan kartochkalarni har xil joylarga tarqatib qo'yilgan bo'ladi. Bolalar pullarni bir xil qilib (kupyura) qilib tahlaydilar.

## **11. «O'YINCHOQLAR» do'koni.**

**Didaktik vazifasi:** Bolalarni predmetlarni tasvirlashga o'rgatish, uning mavjud bo'lgan xususiyatlarini aniqlash, predmetning tasviri bo'yicha topishga o'rgatish.

**O'yining qoidasi:** Sotuvchi o'yinchoqni o'yinchoq haqida yaxshi gapirib bergen bolaga sotadi.

**O'yining borishi:** Bolalar stol atrofiga yarim doira bo'lib o'tiradilar va tayoqchalar, turli xil o'yinchoqlar bilan birga tarbiyachi ularga murojaat qilib deydi:

«Byuda yangi do'kon ochildi, qaranglar, unda qancha chiroyli o'yinchoqlar bor ekan. Ammo ularni sotib oliga uchun bir shartni bajarish, ya'ni o'yinchoqning nomini aytmasdan, uni tasvirlab berish kerak. Lekin bu vaqtida o'yinchoqqa qarash mumkin emas. Sizning tasviringiz bo'yicha sotuvchi bu o'yinchoqni topib, sizga sotadi. Qisqa sanama orqali sotuvchi aniqlanadi. Birinchi bo'lib, tarbiyachi o'yinchoqni o'zi sotib oladi, bolalarga sotib, qanday qilib o'yin qoidalarini bajarishni ko'rsatadi.

- Sotuvchi ona (aka), o'yinchoq sotib olmoqchiman. U yumaloq, rezinkadan qilingan. sakray oladi, u bilan o'ynashni hamma bolalar yaxshi ko'radi. (Sotuvchi xaridorga koptokpi olib beradi).

- Rahmat. qanday chiroyli to'p! - deb tarbiyachi koptok bilan stolga o'tiradi.

Sotuvchya hoxlagan bolaning ismini aytadi. U sotuvchi oldiga borib, o'yinchoqni tasiirlab beradi. qaysiki u o'zi uchun sotib olmoqchi bo'lgan o'yshgchoqpi tasvirlaydi.

- Menga mana shunday o'yiichoqni soting, iltimos: u yumaloq, to'q sariq, uning chiroyli, uzun dumi bor, cho'zinchoq yuzli va ayyor ko'zlari bor.

Sotuvchi xaridorga tulki o'yinchog'ini olib beradi. Xaridor sotuvchiga minnatdorchilik bildirib joyiga o'tiradi. O'yin bolalarining hammasi O'yinchoq sotib olungacha davom etadi. Sotuvchi rolini bir necha bolalar bajarishi mumkin.

## 12. «KASSA» (G'azna) o'yini.

**O'yinning maqsadi:** Kassada kimlar ishlashi, reklamaning, kassa apparatining vazifasini va u erda qaysi zhiyojlar uchun pul to'lanishi, omonat nima, lotereya nima ekanligini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** har xil kvitansiya qog'ozlari, kassa apparatiga o'xshatilgan korobkadan yasalgan o'yinchoq, lotereya va nullarni omonatga qo'yishni tashviqot varaqalari, qog'oz.

**YAngi so'zlar:** to'lov, kassa, hisobchi, kvitansiya, lotereya, jarima, omonat, kassa apparati, g'aznachi.

*O'yinning borishi:* cassaxonada ikki bola ishlaydi. Kassaxonaning ikkita oynakchasi bo'ladi. Har xil kvitansiyalar qog'ozlari turadi. Bir bola kassa apparatida ishlaydi. Boshqa bir bola kassa xodimiga elektr energiyasi uchun haqi qabul qilib olishni iltimos qiladi. Kassir kassa apparatida hisoblab, narxini aytadi, pulni qabul qilib oladi va kvigansiya beradi. Boshqa bir bola logereya chiptasini tekshirib olishga ruxsat so'raydi. G'aznachi lotoreya o'yini chiqqan ro'znomani bolaga solishtirib tekshirib olish uchun beradi. 100 so'm yutuq chiqqapipi aytadi va hisobchi ham tekpshib ko'rib, ishonch hosil qilgach, 100 so'm yutuq pulpi beradi. Boshqa bir bola pulpi omonatga qo'ysam bo'ladimi? deb so'raydi. «Ha, 20 foizligi bor», «SHunisi yaxshi». Bola 100 so'm pulini omonatga qo'yganligi haqida omonat daftarchasini oladi. Bir yildan so'ng pulingiz 120 so'm bo'ladi. Boshqa bir bola kirib keladi va g'aznachiga murojaat qiladi: «Yo'l harakati qoidasini buzganim uchun jarima to'lashim kerak, pulni oling». G'aznachi pulpi olib o'sha bolaga jarimani kassa oglani haqida kvitansiya beradi

### 13. KIM NIMA QILADI?

*Didaktik vazifa:* bolalarning qishloq xo'jalik mehnati haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash. Qishloq xo'jaligi mehnatida ishlatiladigan mehnat qurollari bilan tanishtirish.

*O'yin qoidasi:* kartochkalar ichidan qishloq xo'jaligi mehnati bo'yicha. alohida qismi bo'yicha rasmlarni tanlab yig'ishtirib olish, kombaynchi bug'doy o'ryapti, sut sog'uvchilar sut sog'yapti, cho'pon mol-qo'ylarini boqyapti. tovuqboqar tovuqlarga don beryapti, dehqonlar dalada ishlayaptilar va boshqalar.

*O'yinnipg ta'siri:* rasmdan kerakli qismlarni izlab topish, olingen taassurotlar va mehnat turi to'g'risida gapirib, tasvirlab berish.

*Musobaqa:* kim birinchi bo'lib rasmlarni yig'ishtirish.

*O'yinning borishi:* Qishloq xo'jaligi mehnati to'g'risidagi suhbat, har bir mugaxassisliklarni esga olish, mashinalar qishloq xo'jaligidagi ishlariga yordam berishini eslatish.

Tarbiyachi o'yin qoidasini zslatadi. Bolalar kasblar bo'yicha mehnatlarini

kartochkalar ichidan tanlab oladilar. O'yinning qiyinchiligi shundaki, o'yinda qismlar 10-12 tagacha bo'ladi. Rasmlarni birinchi bo'lib yig'ib, joy-joyiga qo'ygan bola g'olib chiqadi va u g'oliblik jittonini oladi, masalan: sakkiz burchakli yulduzcha-jiton

## **O'YINLARDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulot va o'yinlar davomida iqtisodiy bilimlar berib borilar ekan, bunda xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblanmish maqol va matallarning o'rni ham benihoyadir.

Quyida ana shunday maqol va matallardap namunalar keltirilgan.

Arava sinsa, yalqovg'a o'tin.

Arzonning sho'rvasi tatimas.

Arpa ekan arpa olar, bug'doy ekkan bug'doy olar.

Arg'amchiga qil ham kuvvat

Aql - odamning oltin toji

Bog'ni boqsang bog' bo'lur, botmon daxsar, yog' bo'lur.

Bahorg'i harakat – kuzgi barakat.

Besh barmoq yig'ilsa, musht bo'lar.

Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Birniki mingga, mingniki tumanga.

Bir mayizni qirq bo'lib eydi.

Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.

Bozor ko'rgan echkidan qo'rq.

Burga tutmoqqa ham barmoq ho'llamoq kerak.

Bo'sh qop tik turmas.

Baxg tilakda emas, bilakda.

Bekor turg'uncha, bekor ishla.

Bersang-eyman, ursang o'laman.

Besh qo'l og'izga sig'mas.

Bir boshoq don, bir savat non.

Bir kun janjal bo'lgan uydan, qirq kun baraka qochadi.  
Bir charchaganga tegma, bir och qolganga.  
Bitta chirigan olma, bir ombor olmani chiritadi.  
Bolani pulli ham qilma, pulsiz ham qo'yma.  
Birovning bergani ko'rg'ulik, mehnatning bergani-to'ygulik.  
Bor bo'lsang oshma, yo'q bo'lsang shoshma.  
Borga bor dunyo, yo'qqa tor dunyo.  
Bir yil tut ekkan kishi, qirq yil gavhar terar.  
Vaqting ketdi, naqding ketdi.  
Gadoy arazlasa, to'rvasiga ziyon.  
Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla.  
Gilam sotsang qo'pshingga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasan.  
Dangasani ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.  
Darding bo'lsa bo'lsein, qarzing bo'lmasin.  
Daromadga qarab, buromad.  
Doniga chidagan tovuq boqar, eyishiga chidagan sigir boqar.  
Eb to'ymagan, yalab to'ymas.  
Er-xazina, suv-gavhar.  
Er haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.  
Erga tushgan - gul bo'lar, o'tga tushgan-kul bo'lar.  
Etti o'lchab bir kes.  
YOmon kulolning qo'lidan yaxshi ko'za chiqmaydi.  
YOsh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga.  
YOg' bo'lmasa chalpak qil, un bo'lmasa-patir.  
YOzgi mehnat-qishki rohat.  
Jo'jali tovuqdan don ortmas.  
Jo'jani kuzda sanaydilar.  
Zakotli mol o'tda kuymas, suvda cho'kmas.  
Zar qadrini zargar bilar.  
Ikki o'n besh-bir o'ttiz.

Ikki quyonni quvlagan-birini ham tutolmas.  
Insof sari-baraka.  
Intilgan-ezilmas.  
Irmoqning quvvati-manbada.  
Ish boshlaganda maqtanma, ish bitganda maqtan.  
Ish ustasidan qo'rkar.  
Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar.  
Ishga qo'nim-xirmonga unum.  
Ishlagan tishlaydi, ishlagan kishnaydi.  
Ishning o'zini bilguncha-ko'zini bil.  
Ish sevgapga bekorchilik jazo.  
Yil boshi – ish boshi.  
Yiqqandan qo'rqlama, egandan qo'rqlama.  
Yo'jni bor qilgan ham – odam, yo'q qilgan ham – odam.  
Yo'qolgan pichoqniig sopi-oltin.  
Yo'g'on cho'zilguncha, ingichka uziladi.  
Yo'qqa qalam yurmabdi.  
Yo'qolgan oltin topilar, yo'qolgan vaqt topilmas.  
Kamyobning qadri baland.  
Kasbing halol bo'lgach, yuk egasining farqi yo'q.  
Kimning qo'li uzun bo'lsa, olmani o'sha uzadi.  
Kichik ishni bitirmay, katta ishga kirishma.  
Kosib tikkanini maqtar, dehqon ekkanini.  
Kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymas.  
Kuzning qozoni quyuq qaynaydi.  
Kun u yoqqa, pul bu yoqqa o'tsa bo'ldi.  
Kuchingni elga berma, erga ber.  
Ko'z-qo'rkoq, qo'l-botir.  
Ko'zi to'qning o'zi to'q.  
Ko'p bo'lsa sepla, oz bo'lsa epla.

Ko'pga yugurgan-ozdan ham quruq koladi.  
Ko'p bo'lsang bo'l, ko'rnamak bo'lma.  
Ko'ra-ko'ra ko'z pishar, qila-qila qo'l pishar.  
Ko'rpangga qarab oyoq uzat.  
Qolgan ishga qor yog'ar.  
Mening nafsim balodir, yonar o'tga soladir.  
Maslahatli to'y tarqamas.  
Maňnosi yo'q gapdan, donasi bor cho'p yaxshi.  
Meva o'stirmoq oson, mevasini saqlamoq qiyin.  
Mendan ketgupcha, egasiga etguncha.  
Merosdan musht tegsa ham, ol.  
Mehnat, mehnatning tagi rohat.  
Ming qushchiga – bir boshchi.  
Mol achchig'i – jon achchig'i.  
Mol mard – egasi nomard,  
Mol semirsa yog' bo'lar, er ochilsa bog' bo'lur.  
Mol taniganga – so'z ortiq.  
Moli ko'pning xavfi ko'p.  
Moling sara bo'lguncha, bozoring sara bo'lsin.  
Molindan ayrilsang ham, aqlindan ayirlma.  
Molning qadrini boqqan bilar, o'tinning qadrini yiqqan bilar.  
Mulki yo'qning milki yo'q.  
Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi.  
Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.  
Odamning qo'li - gul.  
Oz bo'lsin-u, soz bo'lsin.  
Oz oshagan moy oshar, ko'p oshagan loy oshar.  
Oyning o'p beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'.  
Ola ekkan oz olar, rosa ekkan soz olar.  
Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Olma pish og'zimga tush.  
Olmoqning bermog'i bor.  
Oltin balchiqqa tushsa ham oltin.  
Omonat ish ovora qilar.  
Oti ulug', suprasi quruq.  
Och qornim-tinch qulog'im.  
Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.  
Og'ir toshni suv oqizmas.  
Podachining qizi poda qaytarda g'ayratga minadi.  
Pul bo'ldi – kul bo'ldi.  
Rejasiz ish-qolipsiz g'isht.  
Ruhi tetikning - ishi tetik.  
Ro'zg'or tushdi botaga, qo'l tegmadi oshga.  
Sabr tagi-sariq oltin.  
Savdo g'avg'osiz bo'lmas.  
Salobatli bo'lguncha, sabotli bo'l.  
Sanamay sakkiz dema.  
Sarishtali uy-farishtali uy.  
Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga.  
Sochganda so'zlashmasang, xirmopda xirillashasan.  
Sochib maqtanma, yig'ib maqtan.  
Soyaga qarab to'n bichma, suvni ko'rmay, etik echma  
Terga botgan zarga botar.  
Toma-toma ko'l bo'lur.  
Tomchi toshpi kesadi.  
Tuyaga yantoq kerak bo'lsa bo'ynini cho'zadi.  
O'yib olsang-o'n kunga, qirib olsang-qirq ko'pga etadi.  
SHolining orqasidan kurmak ham suv ichadi.  
Eski yilning hisobi-yangi yilning sabog'i.  
YUrgan daryo, o'tirgan bo'yra.

Qozonda bori cho'michga chiqadi.  
Qozoni boshqaning-qayg'usi boshqa.  
Qorni to'qning, qorni ochdan xabari yo'q.  
Quruq gap qulooqqa yoqmas.  
Qo'l etmasa, bo'y cho'zma.  
Qo'l bilan berganga qush to'ymas.  
Harakat, harakatdap barakat.  
Hunar-hunardan unar.

## **IQTISODGA OID ERTAK, HIKOYA, RIVOYATLAR**

### **T A N D I R**

*(rivoyat)*

Alisher Navoiyning Mamat aka degan qo'shnisi bo'lar ekan. Mamat aka umr bo'yi ishlab birgina tom yoptirib olgan ekan, xolos. Kunlardan bir kuni Mamat aka Navoiyning huzuriga kelibdi.

- Hazrat, o'zingizga ayonki, men ancha yoshga borib qoldim. Bugun bo'lmasa, ertaga omonatimni topgairadiganga o'xshayman. Sizga aytadigan bir iltimosim bor, xo'p desangiz aytay, - debdi.

-Bajonidil bajarurmen , - debdi gaoir.

- Iltimosim shulki, - so'zida davom etibdi Mamat aka, - men bu dunyodan ko'z yumgan kunimoq bolasi tushmagur o'g'lim Xudoyberdi kulbani sotadigan ko'rindi. Nima bo'lsa ham uni sotishga yo'l qo'yemasangiz. Axir «Vatan gadosi kafan gadosi» deb bekor aytishmagan. Mendan keyin Xudoyberdining bunday uyni tiklab olitiga hech bir ishonmayman. Kulbasiz ko'chalarda qolib, halok bo'ladi.

Mamat aka shupday debdi-da, ko'ziga jiqla yosh olibdi. Navoiy:

-Aytganingiz bo'ladi, menga ishoning, - deb uni yupatibdi. Mamat aka uyiga kelib o'g'lini yoniga chaqiribdi-da:

-Bolam, - debdi unga qarab, - mabodo kunim bitib, qazo qilsam, uyni aslo sota

ko'rma, keyin tiklay olmay halok bo'lasan. Bordi-yu, judayam sotging kelsa, Navoiy hazratlarining oldilaridan bir o'tib, keyin bu ishga qo'l ur. Ishonchim komil, hazrat senga to'g'ri yo'lni ko'rsatadilar.

Mamat aka olamdan o'tibdi. Xudoyberdi uyni sotish taraddudiga tushib qolibdi. «Otam uyni sotadigan bo'lsang, Navoiyning oldidan bir o't degan edi, qani boraychi, hazrat qanday yo'l ko'rsatarkin?» debdi-da, shoirning huzuriga kelib, maqsadini aytibdi. SHunda Navoiy:

- YAxshi, ammo tandiring biroz eskiroq, ko'rindi. Buzib, yangisini qur. Uyning narxi ikki barobar ortadi, - debdi.

Xudoyberdi uyiga kelib, tandiriga qarasa, haqiqatdan ham tandir juda eski, bir tomoni qulab tushgan emish. «Navoiy to'g'ri aytdi, buni buzib, yangisini qursam, uyning narxi ikki barobar oshadi», - debdi-da, tandirni buzibdi. Qo'shni qishloqda tandirchi bor ekan, o'shanikiga jo'nabdi. Tandirfurushdan tandir sotib olibdi-da, ortga qaytibdi. Yo'lda kelayotib, nihoyatda charchabdi. «Bir oz nafasimni rostlab olay, deb bir do'nglikka o'tirmoqchi bo'lган ekan, tandir erga qattiqroq tegib, sinib ketibdi. Xudoyberdi orqaga qaytib, haligi ustadan yana boshqa tapdir sotib olibdi. Uyiga etay deganda, uni ham sindirib qo'yibdi. Bir ilojini qilib, uchinchi tandirni uyiga olib kelibdi-da, eskisini o'rniga qura boshlabdi. Ustiga ko'p loy bostirib yuborgan ekan, ertalab o'rnidan turib qarasa, tandir tushib yotgan emish. Xudoyberdining jahli chiqibdi: «Navoiy nega meni bunchalik ovoragarchilikka solib qo'ydi?» debdi-da, shoirnikiga yo'l olibdi. Navoiy she'r bitish bilan band ekan.

- Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandirni qurolmadim. Mayli, arzonroqqa ketsa ham, uyni tandirsiz sota beraman.

- Hovliqmay so'zimni eshit, - dyobdi Navoiy, - ko'rdingmi, birligina tandirni eplab qurolmaysan, ammo uyni sotmoqchi bo'lasan. «Beli og'rimaganning pon eyishini ko'r», deb bekorga aytishmagan. Uyni sotib qo'yib, yangisini tiklay olmay, ko'chalarda qolib ketishingni o'ylamadingmi? Bor, hunar o'rgan, ishla, uy ham yonga qoladi, tirikchililing ham yaxshi o'tadi.

Navoiyning dono so'zlariga tan bergen Xudoyberdi uyni sotmabdi, bir hunarni o'rganib, yaxshi kun kechira boshlabdi.

## AQLLI BOG'BON

(*hikoya*)

Bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Ular dangasa va ishyoqmas edilar. Bog'bon bir kuni kasal bo'ldi. O'g'illarini ishga solmoq uchun yoniga chaqirub: «O'g'lonlarim, mening ajalim etganga o'xshaydi. Men sizlarga vasiyat qilib ketayin. Bog'ning ichiga bir ko'za oltup ko'mub qo'yg'onman. Mendan so'ngra o'zingizga o'zingiz kovlab, topub, bo'lashub olursiz, - dedi.

Arodan bir necha kun o'tmay, bog'bon dunyodan o'tdi. O'g'illari oltin axtarub, bog'ni chunon qazidilar-ki, tuproqlari kul bo'lib ketdi, lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topa olmadilar. Ammo shul yili tok chunon uzum qildi-ki, aqchasi necha ko'zaga to'ladurg'on oltin bo'ldi. So'ngra bu yalqovlar bildilar-ki, oltin erda emas, ishlovda ekan.

Hissa: Hamma yomonliklarning onasi dangasalik, qo'rkoqlik otasidur

## **KEKSA KULOL VA SHOGIRD**

YOshi oltmishlardan oshgan mo'ysafid odam kulolning uyiga bir kuni o'g'lini boshlab kelib debdi:

- Taqsir, peshonamda shu bitta-yu bitta o'g'ilcham bor. Ko'zim tirikligida biror hunarning boshini tutsin deb, sizni qora tortib keldim-da.

Kulol sopol tovoqlarning chetlarini o'sma rangiga bo'yab turib:

- Mayli, eski oshnamiz iltimos qiladilar-u biz yo'q deymizmi, - deya iltifot ko'rsatibdi.

SHogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o'choqqa o't qalabdi, xullas ustozning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga kundan-kun manzur bo'lib, tez sotila boshlabdi. Oradan bir necha qishu yoz o'tgandan keyin shogird «kulolchilikning miridan-sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo'lib yuramanmi?» deb o'yabdi-da, ustozidan javob so'rabi. Kulol bo'lsa:

- O'g'lim hunar injiq parsa, sabr toqat qilib, yana bir yil qarashib-netib turganing ma'qul edi, - debdi.

SHogirdning ichi pishib ketib, qo'yarda-qo'ymay fotihasini olibdi. Katta bozorga do'kon ochgan kunlari xaridorlar uning piyola, choynak, ko'zachalarini talashib olib ketishibdi. Ustozi bo'lsa «mayli oxiri xayrli bo'lsin», deb o'z yumushini davom ettiraveribdi. Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini birov xarid qilmay qo'yibdi. CHunki u yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ustiga-ustak ko'chib ketayotgan emish.

Ustozning bozori avvalgisidan ham qizib, tushlik qilishga ham qo'li tegmay qolibdi. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko'p aziyatlar chekibdi. Nihoyat, kulolnikiga ming pushaymon bilan qaytib kelibdi.

Kulol uning joniga yana oro kiribdi. Oydan-oy, kundan-kun o'tibdi. Sadoqatli shogirdiga kulol:

- Bolam, alahsimay, razm solib tur! - debdi-da, qurigan idishlarni

bir-bir «puflab» so'ngra sir beribdi. SHunda laganu tovoqlarning chiroyi juda ham ochilib, yarqirab ketibdi. SHogird endi, uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog'labdi.

## AQL VA BOYLIK

(o'zbek xalk ertagi)

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol:

-O'g'illarim, men qarib-qartayib qoldim, - debdi, - orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysipgiz menga aqli va davlatli ekanligingizni ko'rsating.

Eng katta o'g'li zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib debdi

- Mana boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi.

Ikkinci o'g'il zarbof choponini kiyib ko'rsatibdi:

- SHu iaytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil bo'ladi,  
- debdi.

Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab debdi:

-Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas!

CHol boshini chayqab, katga o'g'illariga bir nima demabdi. Kenja o'g'liga qarab:

-Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? -Debdi.

- Menda zumrad ko'zli uzuk ham yo'q, zarbof chopon ham yo'q, qimmatbaho kamar ham. Lekin mehnatkash qo'lim bor, botir yuragim, aqli boshim bor, - debdi kenja o'g'il.

Kenja o'g'lining javobi cholga yoqibdi, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga uning so'zidan chiqmaslikni tayinlabdi.

*Abdulla Avloniy*

## SAHIYLIK

Bir kishining Said ismli o'g'li bor zdi. Otasi har kuni mакtabda taom emak

uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kup maktabga ketib borganda, bir faqir kishi yo'luqub:

- Ug'lim, ikki kundan beri ochman. Taom olib ey desam, ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q. Bir oz oqchang bo'lsa, bersang, savob topur eding, - debdi.

Said faqirning gapiga toqatsiz bo'lib, holiga rahmi kelub, atosi bergen o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir bu yosh Saidning qilgan shafqatu marhamatiga ofarin qilub, yig'lay-yig'lay duolar qilib ketdi.

Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochligini hech kimga bildirmay, sabru qanoat bilan o'tkazdi. Maktabdan ozod bo'lib, otasi ham «sahiy Saidim», deb xursand bo'libdi, undan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurga va'da qildi. Saodatlil Said otasi bergen yigirma tiyinining o'n tiyinii eb beshini faqirlarga berub, beshini yig'ub, tezdan boyib ketdi.

## CHUMCHUQ

(*o'zbek xalk ertagi*)

Bir zamonlar uzoq bir mamlakatda zolim podsho bo'lган ekan. Xalq uning sitamlaridan ezilgan, norozi bo'lган ekan. Zolim podsho esa bunga beparvo, saroy ichkarisida turfa bayramlar bilan ovora bo'lar ekan. Odamlar undan norozi bo'lib, xudodan nobakor zolimga jazo berishni so'rashar ekan.

SHu mamlakatda ajib bir chumchuq bo'lib, el-yurt dardini o'z dardi bilib yashar, u ham podshoning jabridan ko'p jafo chekarkan. Bir kuni o'sha chumchuq dala ustidan uchib o'tayotib, yo'ldan bir g'o'za topib olibdi va sevinib ketibdi. Tumshug'ida g'o'zani tishlab, shoshilgancha bir kampir yopiga uchib boribdi. G'o'zani kampir oldiga tashlab:

- CHuv, chiy-chiy, - debdi. Kampir g'o'zani chuvib beribdi. CHumchuq paxtani olib boshqa bir kampir oldiga borib:

-Sava, sav, sav, - debdi. U kampir savab beribdi. So'ngra chumchuq ola chopon bo'zchi do'koni oldiga borib:

-Ig, ig, ig, tuk, tuk! - debdi. Do'kondor bo'zchi yigirib, to'qib beribdi. CHumchuq tikuvchi oldiga borib:

- Tik, tik, tik,- debdi. Tikuvchi uni o'lchab, chophon tikib beribdi. CHumchuqboy chophonni kiyib, podsho o'rdafiga uchib boribdi. Borib qarasa, podsho bazmu jamshib qilib yotgan ekan. CHumchuq narida turib podshoga:

- Mening to'nm chiroyli, mening to'nm chiroyli, - debdi. SHunda podsho g'azabi qo'zib «Jallod!» debdi Jallod kelibdi. Podsho unga:

- Anavi falokat nima deyapti? O'ldir uni! - deb baqiribdi. Jallod qonli boltasini havoda bir-ikki aylantirib, zarb bilan uribdi. CHumchuq «pirr» etib uchib, shohning boshi ustida aylana boshlabdi. Jallod yana bir zarb qilgan ekan, chumchuq yana qochib, eshik ustiga qo'nibdi. SHunda saroyda g'alag'ovur boshlanibdi. Jallod qarasa, urgan boltasi podshoning yarmini kesib ketibdi. Podsho til tortmay o'libdi. CHumchuq bo'lsa, hodisani ko'rib, quvonib ketibdi.

SHunday qilib, dono va botir CHumchuqboy yordamida zolim podsho o'lib, xalq murodiga etgan ekan.

### *Xayriddip Saloh*

## **KO'YLAKNI KIR QILMAYMAN**

Xolasi Malohat opa Gulnozani juda yaxshi ko'radi. SHunipg uchun ko'nipcha uyiga ham olib ketadi. Gulnozaning o'zi ham juda aqlli qiz. Xolasinikiga borganda sira jim o'tirmaydi. Uylarini yig'ishtirishga, hovlini supirib-sidirishga yordamlashadi. Bir kuni Malohat opa Guliozani o'zi ishlaydigan fabrikaga olib bordi. Bu erda juda ko'n ayollar ishlashar ekan.

- Ular nima qilishayapti? - so'radi Gulnoza xolasidan.
- Ko'ylak tikishyapti, - dedi. Malohat opa.
- Kattalarping ko'ylagini tikishyatimi? - yana savol berdi Gulnoza.
- Yo'q, sendaqa bolalarnipg ko'ylagini, - tushuntirdi xolasi va uni tikuvchilar

yoniga boshlab bordi. Gulnoz qo'li gul chevarlarga salom berdi-da, bir chekkada ularning ishini kuzatib turdi.

Qarasa, tikuvchilarning' biri ko'yakning bo'yini tayyorlab beryapti, ikkinchisi yoqasini tikyapti. Uchinchisi engini tayyorlayapti. Yana boshqasi esa tayyorlangan epg va yoqalarni ko'yakka o'tkazyapti.

Gulnoza bularni ko'rib hayron bo'lib qoldi. Avvallari u ko'yakni bitta odam tikadi, deb o'ylab yurardi. Negaki, ko'pincha uning ko'ylagini oyisi Sabohat onaning o'zi tikib berardi-da.

-Bu erda ko'yakni ancha odam tikadimi? - xolasidan so'radi Gulnoza.

-Ha, oppoq qshim, - javob berdi xolasi.

Gulnoza o'sha kuni fabrikadan xursand bo'lib qaytdi. Ko'rganlarini dugonalariga gapirib berdi. Oyisi ishdan qaytgach, uning bag'rige otildi: Oyijon, xolamning ishxonalarida-chi, bolalarga ko'yak tikisharkan. Bitta ko'yakni-chi, juda ko'n odam tikar ekan. Endi-chi, ko'ylagimni sira kir qilmasdan kiyaman. Bo'lmasam, ko'yak tikkam xolalarim xafa bo'ladi-ya? - dedi.

Qizining chug'urlab biyron-biyron gapirayotganini ko'rgan Sabohat ona unga mammun jilmayib qo'ydi.

## **HUNARLI YIGIT XOR BO'LMAS**

*(ertak)*

Qadim zamonda atrofi o'rmonu adirlar bilan o'ralgan Marg'ilon degan go'zal bir qishloq bo'lган ekan. Xonlar, beklar nazaridan chet bo'lgani uchun xalqi ham, o'rmoni ham tinch ekan. Lekin Marg'ilonga xonlar yo'l topib, xalqni talashga kirishibdi. Og'ir mehnat, ochlik azoblari jonidan o'tgan bir yigit baxt axtarib, yo'lga chiqibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Bir to'qayzorga kelganda allaqanday dahshatli tovush eshitilibdi. YAqinroq borib qarasa, kattakon bir qoplon cholni bosib olib, bo'g'ziga tishini botirmoqchi bo'lib turganmish. Yigit o'zini qoplonning ustiga otibdi. Qoplon o'ljasini qo'yib yuborib, yigitga yopishibdi. Ikkovlari uzoq olishibdilar, oxiri yigit yonidan pichog'ini olib, qoplonning biqiniga sanchibdi. Qoplon o'sha zahoti jon beribdi.

Yigit o'z jarohatlarini ham unutib, cholni hushiga keltirishga urinibdi. CHol juda holdan toygan ekan. Yigitning savoliga javoban allanarsalar debdi-da, o'ng qo'li bilan sharq tomonga ishora qilibdi. Yigit cholni uy-joyi o'sha tomonda ekanini fahmlabdi. YAqin oradan karvonlar o'tib qolibdi. Yigit ularni to'xtatib, cholni tuyaga mindirib, o'zi piyoda jo'nabdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Ancha yurishgandan keyin Xitoy mamlakatiga kirib borishibdi. CHol bir hovlini ko'rib, sevinganidan qichqirib yuboribdi. Yigit cholning hovlisi shu ekanini bilib, uni tuyadan tushiribdi, suyab hovliga olib kiribdi. Hovlidagi qiz cholga peshvoz chiqib, ikkovi quchoqlashib ko'rishibdilar. So'ngra qiz yigitga minnatdorchilik bildiribdi:

- Siz otamni o'limdan qutqaribsiz, katta rahmat, - debdi u.

Ular yigitni juda yaxshi mehmon qilishibdi. Kunlarning birida yigit qizga o'z maqsad-orzusini, nima uchun yo'lga chiqqanini gapirib beribdi. SHunda qiz unga:

- O'zimiz juda kambag'almiz. Lekin uy-joyimizni sotsak ham sizga yordamlashamiz. Mato olib, sizni karvonlarga qo'shib yuboramiz, savdo qilib boyiysiz, - debdi. Yigit bunga rozi bo'lmabdi.

- Men otangizni mol-dunyo uchun qutqarmadim. Unga insoniylik yuzasidan yordam berdim. Taklifingiz uchun rahmat, lekin savdotarchilikdan og'iz ochmang, - debdi. Qiz muloyimgina kulib quyibdi.

- Kechiring meni, siz bizga o'xshab, halol mehnat bilan yashaydigan odamlardan ekansiz. Xohlasangiz shoyi to'qish hunarini o'rgatay, - debdi qiz. Bu taklif yigitga ma'qul tushibdi. CHunki yigit tug'ilgan qishloqdagilar shoyi to'qishni, ipakni qaysi yo'l bilan olishni bilishmas ekan. Qiz uyidan kichkina xalta olib chiqib, undagi urug'larni yigitga ko'rsatibdi.

- Mana shu urug'lar issiqda qurtga aylanadi. Qurtlar ipak chiqaradi.

Bu gapga yigitning ishongisi kelmabdi. Qiz bo'lsa urug'larni qurtchalarga aylantirib, ularni savatlarga solibdi. Tut barglarini maydalab, qurtlarga edira boshlabdi. Qurtlar bargni ishtaha bilan eb, o'sa boshlabdi. CHol, yigit va qiz qurtlarga arang barg tashlab ulguribdilar. Oxiri qurtlar engil ipak tolalarini chiqarib, o'sha tolalarga chulg'ana boshlabdilar. Qiz pillani chuvab, ipakka aylantiribdi-da, shakllarni dastgohga tortibdi. Yigit shoyi to'qishni havas bilan o'rgana boshlabdi. Ikki yil deganda juda yaxshi to'quvchi bo'libdi.

Hijol podshosi qurt boqish sirini, shoyi to'qish hunarini chetga chiqarmaslik uchun mamlakatdagi kishilarga qat'iy buyruq bergen ekan. U shoyi kiyimlarni faqat o'zi va saroy kishilarigina kiyishini xohlar ekan. Musofir yigitning mohir shoyi to'quvchi bo'lганини eshitib, darrov saroya chaqirtiribdi. Yigit kelibdi. SHoh unga boshdan-oyoq razm solib:

- Uch kun ichida Xitoyda hech kim to'qiy olmaydigan ajoyib shoyi to'qishing kerak. Agar uddasidan chiqolmasang, kallangni tanangdan judo qilaman, - debdi.

Yigitning rosa boshi qotibdi. Uyga xomush qaytibdi. Uni bu ahvolda ko'rgan qiz hayron bo'libdi.

- Nima bo'ldi? - so'rabdi u.

Yigit shohning qo'ygan shartini qizga batafsil gapirib beribdi.

- Qayg'urmang, - deb tasalli beribdi qiz unga, - yigit kishi doim dadil bo'lishi, botiga mugakul ish tushsa, o'zini yo'qotib qo'ymasligi kerak. Keling, ikkalamiz eng shimarib, ishga kirishaylik.

O'sha paytda Xitoyda oq jundan shoyi to'qilar ekan. Yigitning xayoliga Marg'ilon o'rmonining qirg'ovullari patidek rangdor shoyi to'qish kelibdi. O'z qishlog'idagilarning daraxt gullari, tomiri, meva po'choqlaridan qanday rang olishganini eslab, shunaqa ranglar tayyorlabdi. U oq ipakni dastgohga tortib, ipakka shu rangdan purkabdi. SHoyi to'qilib bo'lgach, unga tuxum sarig'ini surib, to'qmoq bilan kuding urgan ekan, shoyi juda ham tovlanib, yarqirab ketibdi.

SHoh yigit keltirgan shoyini ko'rib, hangu mang bo'libdi. Barmog'ini baland ko'tarib, «xo!» debdi. Bu a'lo degani ekan.

-Sen endi, mening saroyimda shoyi to'quvchi bo'lib ishlaysan, - debdi shoh unga, - katta haq olasan!

Lekin yigit bunga ko'nmabdi va shohga:

-Men o'z vatanimga borishim kerak, agar sizga shoyi kerak bo'lsa, olavering. Mep sizga emas, xalqimga xizmat qilaman, - debdi.

-Agar ko'nmasang, senga hunar o'rgatganlarni o'ldiraman, - deb uni qo'rqtibdi shoh. Yigit yana kelaman, degan bahona bilan uch kunga muxlat olib, uyiga kelibdi. CHol bilan qiz voqeani eshitgach, o'ylay boshlashibdi.

YArim kechada chol, qiz, yigit - uchchovi birga shahardan chiqib qochishibdi. YUrib-yurib noma'lum bir o'rmonga etib kelishibdi. SHu erda ular anchagina osoyishta umr o'tkazishibdi. Nihoyat, yigit chol bilan qizni o'z qishlog'iga olib ketibdi. Ustaxona ohib, rang-barang shoyilar to'qiy boshlashibdi. Qiz va chol unga ko'maklashibdi. Hunarlarini oshnalariga ham o'rgatibdi. SHunday qilib, ular to'qigan shoyi Marg'ilon shoyisi deb dunyoga yoyilibdi

## **OLTIN TARVUZ**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bo'lган ekan. Uning atigi bir tanobgina eri bor ekan. Dehqon shu erda kechayu-kunduz tinmay mehnat qilar ekan. Bahor kelibdi. Dehqon er hayday boshlabdi. Erni haydab bo'lib, katta soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmondan uchib ketayotgan laylak yiqilib tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti siniq emish. Dehqon haligi laylakni uyiga olib borib, siniq qanotiga taxtakach bog'lab, bir qancha vaqt uni parvarishlabdi. Laylak sog'ayib uchib ketibdi.

Bir kuni dehqon chigit ekib yursa, o'sha laylak pastlab uchib o'tibdi. Dehqon esa chigitni ekaveribdi. Biroq laylak yana pastlab o'tibdi. SHu o'titda uch dona tarvuz urug'i tashlab ketibdi. Bir necha kundan keyin chigit bilan birga tarvuz urug'i ham unib chiqibdi. Ekinni vaqtida o'tabdi, sug'oribdi, chopibdi.

SHunday qilib, hosilni yig'adigan payt ham kelibdi. Bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar kattakon ekan. Dehqon qarindosh-urug'larini, oshna-og'aynilarini mehmonga chaqiribdi. Tarvuzga pichoq ursa, pichoq botmas emish. Uni qo'yib, ikkipchisini, uchinchisini so'ymoqchi bo'libdi. Ular ham shunday bo'libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham, hayron bo'lishibdi. Erga bir urib, tarvuzni yorib qarasalar, ichi to'la tilla emish. Kambag'al sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ular ulashibdi, ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga

## BOZOR IQTISODIYOTIGA DOIR BILIMLARNING LUG'AVIY MA'NOLARI

*Bozor* - (forscha-tojikcha) - aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy. Bozor - tovarlar bilan oldi-sotdi munosabatlari, tovar ishlab chiqarish, tovar ayrboshlash va pul muomalasi, qonunlari amalga oshiriladigan sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi tovarni pulga ayrboshlash munosabati bo'lib, unda ikki jarayon: tovarni sotish, pulni almashtirish va tovarni sotib olish, xarid etish-pulni tovarga almashtirish amalga oshadi.

*Garov* - (forscha-tojikcha) pul qarz olganda qarz oluvchi uni qaytarib berishi kafolatiga qo'yilgan mulkdir. Qarz to'lanmasa, mulk qarz beruvchi ixtiyoriga o'tadi.

*Daromad* - (forscha-tojikcha) - davlat, savdo-sanoat muassasalari, korxonalari, jamoa xo'jaligi, ijtimoiy tashkilot yoki ayrim shaxslarning biror faoliyat evaziga oladigan (kelib tushadigan) puli, moddiy boyliklari, foydasidir.

*Ijara* - (arabcha) - mol-mulkni yollash bo'yicha mulk egasi bilan tadbirkor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat: vaqtincha ishlatib turish yuzasidan ijara shartnomasiga ko'ra bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga ma'lum to'lov evaziga va ma'lum shartga binoan mol-mulkni vaqtincha foydalanish uchun beradi.

Ijara xaqi mulk egasi mol-mulkni qiymatiga va keltiradigan daromadga bog'liq bo'lib o'zaro kelishuv bilan belgilanadi.

*Kim oshdi savdo* - (auksion) - maxsus kim oshdi savdo bozorlari tovarlarni talabgor xaridorlarga sotish usuli bo'lib, u oldindan e'lon qilingan vaqtida davriy: har kuni, har oyda, muayyan oylarda yoki yilda bir marta tovarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmiga qarab o'tkaziladi.

*Narx* - (forscha-tojikcha) - tovar qiymatining pul shakli bo'lib, bu bozor iqtisodiyoti mavjud jamiyat xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy dastakdir.

Narx tovar yoki xizmatda gavdalangan ijtimoiy mehnatning qiymatni pul shaklida ifoda etadi.

Narx faqat qiymatni emas, balki talab va taklif, tovarlarni ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlarning o'rnini bosa olishi, muomaladagi uning xarid qobiliyatiga ham bog'liq bo'lganligidan u qiymatdan miqdoran farqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan narx turlari ko'payadi. Bozor iqtisodiyotida erkin narxlar va davlat boshqarib turadigan narxlar amal qiladi.

*SHartnoma* - bitimlarning eng ko'n tarqalgan turi.

*Bank-kredit* - moliya muassasasi vaqtincha bo'sh pul vositalarini bir joyda to'plab, pulga muhtojlarga kredit, ssuda puli beradi, pul hisob-kitoblarini amalga oshiradi, turli qimmatbaho qog'ozlar chiqaradi. Oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq muomalalarini bajaradi.

*Ishbilarmonlik* - dadil muhim va og'ir maqsadlarni ro'yobga chiqara bilib, yangi g'oyalarni amalda sinashdek butun mas'uliyatni o'ziga olib, tavakkal ish tutish va doimo yangi narsalarni o'ylab topish, bunyod qilishga, borini yanada takomillashtirishga intilish, urinish, shuningdsk, o'zidagi ozmi-ko'pmi boylikdan biznes uchun foydalana oladigan faol va tashabbuskor kishining aqliy faoliyatidir.

*Iqtisod* - xo'jalikni yuritish va boshqarish. Inson mehnati tufayli yaratilgan va unga amalda foya be rayotgan atrofdagi barcha narsalar inson mehnati bilan mahsuldor, unumli boyitilgan tabiat.

*Iqtisodiy siesat* - jamiyatdagi ijtimoiy mafkuraga tayanib, muayyan iqtisodiy tarqqiyotni ko'zlab, davlat, davlatlar hamkorligida amalga oshiriladigan iqtisod borasidagi ilmiy qarashlar, g'oyalalar, maqsad, vazifalar, tadbirlar yig'indisi.

*Iqtisodiy munosabatlar* - ishlab chiqarish taqsimot ayrboshlash va iste'moldagi iqtisodiy aloqalar.

*Mulkchilik* - kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashgirish yuzasidan paydo bo'lган va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar.

*Ijtimoiy mulk* - mulkchilikning bir turi, ishlab chiqarish va mehnat mahsulini, milliy boylikni butun jamiyat miqyosida o'zlashtirilishi.

*Xususiy mulk* - mulkchilikning bir turi, yakka shaxs, korxona, jamoa, xo'jalik, firma va boshqalarning xususiy lanpirilgan, qonuniy tan olingan mol-mulki.

*SHaxsiy mulk* - mulk turlaridan biri, fuqaroning shaxsiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi mulki.

*Pul* - (yunoncha) - bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi bo'lib, u hamma

tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan umumiy ekvivalent bo'lmish maxsus tovardir. O'z tabiatiga ko'ra, pul shunday xususiyatga egaki, u hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi, boylik timsoli va mehnatni qiymat shaklida o'lchab beradigan vositadir.

Pul qiymat o'lchovi.

Pul - ayirboshlash vositasi.

Pul xazina to'plash va jamg'arish vositasi.

Pul to'lov vositasidir.

Milliy valyuta muayyan mamlakatning pul birligi.

*Pul muomalasi* - pulning xo'jalik faoliyatdagi harakati, tovar-pul munosabatlarning ajralmas bir qismi.

*Pul qadri* - tovar va xizmatlarni xarid etish, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati.

*Reklama* - tovar yoki ko'rsatiladshan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, talabni ko'paytirish maqsadlarida xaridorlarga tovarlarning' xossalari, afzalliyulari va sotib olish shartlarini etkazish yoki oshkor etish.

*Biznes* - harakatsiz qolgan pulni ishga tushirish, pul harakatda bo'lgandagina daromad keltiruvchi pulga aylanishi mumkin.

*Biznesmen* - pultopar kishi

## **MULOQOT - BILIM VA KO'NIKMANI MUSTAHKAMLAYDI**

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda «Nechta?», «Qancha?», «Kattami yoki kichikmi?», «Ozmi? Ko'pmi?» kabi savollarga javob izlash muhim ahamiyatga ega.

Bunday savollar bolalarni fikrlashga, o'ylashga o'rgatadi, hayotiy jarayonlarga iqtisodiy tafakkur bilan yondoshishga undaydi.

Quyidagi ana shunday savollardan namunalar keltirilgan.

1. Oilangiz necha kishidan iborat? Ulardan qanchasi bolalar, qanchasi kattalar?
2. Oilangizda necha odam ishlaydi? Necha nafari maktabga, necha nafari

bog'chaga boradi?

3. Guruhingizda jami nechta bola bor? Ulardan necha nafari qiz bola, necha nafari o'g'il bola?
4. Odam uchun kerakli bo'lgan buyumlar nomini ayting?
5. Bir kunda necha marta ovqatlanasiz?
6. Guruhingiz nechta xonadan iborat?
7. Obi non kattami, kulcha non?
8. Soat gardishida nechta raqam bor?
9. Necha xil sabzavot turini bilasiz?
10. Necha xil meva turini bilasiz?
11. Bug'doydan necha xil mahsulot olinadi?
12. Go'shtdan qanday mahsulotlar olinadi?
13. Necha xil sutli mahsulotni bilasiz?
14. Necha xil transport turini bilasiz?
15. Nechta uy hayvonlarini bilasiz?
16. Nechta yovvoyi hayvonlarni bilasiz?
17. Necha xil gazlama turini bilasiz?
18. Necha xil konfet, shokolad nomini bilasiz?
19. Necha xil saqich nomini bilasiz?
20. Bosh kiyim turini sanang?
21. Oyoq kiyim turini sanang?
22. O'quv-qurollari turini sanang

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.I.A.Karimov, «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda», Toshkent O’zbekiston», 1999 y.
- 2.I.A.Karimov, «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori», Toshkent, «SHarq», 1997 y.
- 3.I. A. Karimov, «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», Toshkent, «O’zbekiston», 1994 y.
- 4.O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, Ma’rifat gazetasi, 1997 yil 1 oktyabr.
- 5.«O’zbekiston Respublikasida uzlusiz iqtisodiy ta’lim-tarbiya konsepsiysi». Ma’rifat gazetasi, 1996 yil 17 avgust.
- 6.«Maktabgacha yoshda bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari». Tuzuvchi mualliflar: M. Rasulova, X. Abdurahmonova va boshqalar. Toshkent, O’zPFITI, 2000 yil.
- 7.«Uchinchi ming yillikning bolasi» (tayanch dasturni amaliyotga tadbiq etishga yo’naltirilgan ko’llanma), Toshkent, 2001 yil.
8. «Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish», (bolalar bog’chalari uchun dastur). Tuzuvchilar: N.Bikbaeva, T. Umarova Toshkent, O’zPFITI, 1995 y.
9. «Bolalar bog’chasida ilk iqtisodiy ta’lim-tarbiya dasturi». Mualliflar: F. Sobirova, A. Toshqo’zieva. Toshkent, 1996 yil.
- 10.«Barkamol avlod orzusi». Tuzuvchilar: SH. Qurbonov, X. Saidov, R. Axliddinov, Toshkent. «SHarq», 1999 yil.
- 11.Saf o’chil, «Mustaqillik». «O’zbekiston», 1995 y.
- 12.Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992 y.
- 13.«Amir Temur o’gitlari». Toshkent, «Navro’z», 1992 yil.
- 14.Valieva 3.O., SHaripov N. K., Hotamov X. K., «Boshlang’ich sinflarda iqtisod alifbosi maxsus integratsiya qilingan fan jarayonida iqtisodiy bilish va ko’nikmalarni shakllantirish». Toshkent, XTV, RTM, 1996 yil.

15. Valieva 3. A., «Iqtisodni bilishni istasang» (o'quvchilar uchun qo'llanma), Toshkent, 1994 yil.
16. «Atamalar ma'nosi», S. Rizaev, «Boshlang'ich ta'lim» jurnali, №3, 1996 yil.
17. «Iqtisod alifbosi». Toshkent, 1996 yil.  
va tarbiya masalalari» Toshkent
18. «Durdon» (bolalar uchun adabiyot xrestomatiyasi) Toshkent, CHo'lpon, 1995 yil.
19. Jo'raev S, Qodirov X., «Kichknntoylar nutqini o'stirish», (maktabgacha tarbiya muassasalari va ota-onalar uchun qo'llanma), Toshkent, «O'qituvchi», 1995 yil.
20. «Iqtisodiy tarbiyani erta boshlash kerak», N. Erkaboeva, «Boshlaig'ich ta'lim jurnali», № 3, 1999 yil.
21. «Boshlang'ich ta'lim jurnali» № 1, 3, 4. 1998 yil.
- 22.«G'uncha» jurnali, № 1, 2, 19. 1996 yil.